

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN  
(1879-1955)

# 2022

## YANVAR

## №36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
8-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-8**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 49 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

<b>1. Abdurahmanova Madina</b> NAVOIY ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYANING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	7
<b>2. Ahmedova Sul-tonposhsha Rajabovna</b> ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	9
<b>3. Jumabayeva Sohiba, Matniyozova Zaynabxon</b> ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ASARI TAHLILI .....	11
<b>4. Mahmudova E‘zoza Rahimjonovna</b> O‘QUVCHILAR ONGIGA ABDULLA AVLONIYNING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARINI SINGDIRISH.....	13
<b>5. Alimova Gulshoda</b> YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI .....	15
<b>6. Kayumov Nodir Nayimovich</b> «AVESTO» BADIYATIDA SAN’ANTINIG O’RNI .....	17
<b>7. Ruzmatova Adolat Yusupovna</b> ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI .....	20
<b>8. Sadiqova Mohinur</b> MAQOLLAR - INSONNI TARBIYALAYDIGAN VOSITA.....	22
<b>9. Yo‘ldoshova Shodiya</b> YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI .....	24
<b>10. Abdullayeva Xolida Hamroyevna</b> ADABIYOTDA TARIXIYLIK VA RELIZM.....	26
<b>11. Yo‘ldosheva Sohiba Kuchkorovna</b> O‘QUVCHILARDA NUTQ MADANIYATINI O‘STIRSHDA ONA TILI ADABIYOT DARSLARIDA QO‘LLANILASHDA ENG SAMARALI VA MUHIM METODIK TAVSIYALAR .....	28
<b>12. Kamolova Dilnozaxon</b> NUTQNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARIDAN BIRI PSIXOLINGVISTIKA VA BU NUTQNING SHAKLLANTIRISH OBYEKTIDA AYOLLARNING O’RNI .....	32
<b>13. Esonaliyeva Kimyoxon Baxodir qizi</b> ABDULLA ORIPOV SHE’RLARINING TIL BADIYATI.....	35
<b>14. Isroilova Gulbahor Yusbjonovna</b> ALISHER NAVOIY IJODIDA BAHROM TIMSOLI VA UNING BADIY TALQINI.....	37
<b>15. Jumaboyeva Munisxon Sheripboy qizi, Sobirova Dildora Bekturdi qizi</b> ADABIYOT FANLARIDA DIDAKTIK O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	39
<b>16. Nuriddinova Nozima Avazxonovna</b> TOPONIMLARDA HAR BIR TARIXIY DAVRNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	41
<b>17. Sotvoldiyeva Iroda Anvarovna</b> JADIDCHILIK HARA-KATI VA UNING SIYOSIY MUHITGA TA’SIRI .....	43
<b>18. Tulanboyeva Shaxloxon Valijonovna</b> ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINI O‘RGANISH.....	45
<b>19. Umarova Intizor Raximberganovna, Matqurbonova Gulbaxor Shokirovna</b> ADABIYOT DARSLARIDA IJODKOR TARJIMAI HOLINI O‘RGATISH XUSUSIDA.....	47



## АДАБИЁТ

### NAVOIY ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYANING O‘ZIGA XOS JIHLARI

**Abdurahmanova Madina**

Xorazm viloyati Xiva shahridagi  
9-sonli o‘rta ta’lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Navoiy ijodi inson axloqining barcha ko‘rinishlarida mezon darajasini belgilab olishga xizmat qilishi va hikoyatlar ma’nosini sharhlashda hayotdagi o‘xshash holatlarga, voqealarga bog‘lab talqin qilinishi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, adabiyot, “Xamsa”, “Sher bilan Durroj”, “Lison ut-tayr”, halollik, mehnatkashlik, rostgo‘ylik, ilm olish.

Odam onadan tug‘iliboq o‘z-o‘zidan ma’naviyatli, ma’rifatli bo‘lib qolmaydi. Kishi bu fazilatlarga tinimsiz o‘qib-o‘rganish, ustozlar ta’limini olish, hayotni chuqur kuzatib ibratli tajribalar to‘plash orqaligina ega bo‘ladi. Mana shu jarayonda adabiyotga murojaat qilish nihoyatda katta samara beradi. Har tomonlama barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish davlatimizning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biridir. Ta’lim-tarbiya berish borasida Sharq adabiyoti o‘zining chuqur didaktikaga yo‘g‘rilgani bilan ajralib turadi. Insonni aqlan, ma’nan, zohiran va botinan poklikka chorlaydigan ijodkorlardan biri Alisher Navoiydir. Navoiy ijodi inson axloqining barcha ko‘rinishlarida mezon darajasini belgilab olishga xizmat qiladi. Ularda asl inson qanday bo‘lishi kerakligi uqtiriladi. Ijodining g‘oyaviy mazmuni rostgo‘ylikka, halollikka, mehnatkashlikka, insonni qadrlashga o‘rgatadi. Insonning kamolotga yetishida asosiy yo‘l ilm ekanligini takror-takror aytadi va ilm olishga chorlaydi.

Bugungi kunda Alisher Navoiy ijodidan yosh avlodni bahramand qilish uchun turli usullardan foydalanilmoqda. Asarlari nasriy bayon qilinib, hikmatli so‘zlari alohida havola etilmoqda, “Xamsa” dostonlaridan ibratli so‘zlar va hikoyatlar olinib, tarbiyaviy maqsad sari yo‘naltirilmoqda. Butun turkiy xalqlarning buyuk ma’naviy merosi hisoblangan “Xamsa” tarkibidagi “Hayrat-ul abror” dostoni o‘zining tarbiyaviy mohiyati bilan boshqalardan ajralib turadi. Unda berilgan hikoyatlar har biri o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ma’lum maqsadlarni bayon etish uchun xizmat qiladi. Yoshi ulug‘lar bilan birgalikda aynan bolalarga ham tadbiiq qilish mumkin bo‘lgan hikoyatlardan biri Hotami Toy hikoyatidir. Unda o‘z mehnati bilan kun ko‘radigan o‘tinchi haqida hikoya qilinib, halollik, mehnatkashlik ulug‘lanadi. Bu holat bevosita xalq ertaklaridagi sofdil, mehnatkash, samimiy kishilarni – odatda mehnatkash insonlar qiyofasini gavdalandiruvchi oddiy dehqon, cho‘pon, o‘tinchi timsollarini ko‘z oldimizga keltiradi. Hikoyat bolani mehnatsevarlikka o‘rgatadi, oson yo‘l bilan topiladigan minnatli oshdan o‘z peshona terisiga kelgan luqmaning afzal ekanligini uqtiradi. Navoiy asarlarini targ‘ib qilish, anglatish borasida qilingan ishlardan biri dostonidagi “Sher bilan Durroj” hikoyati asosida ishlangan multfilmdir. Mazkur hikoyatning talqini bolajonlar tomonidan juda sevib tomosha qilinadi. Unda yolg‘on gapirishga o‘rgangan tildan aytilgan rost so‘z ham yolg‘on kabi eshinishi isbotlangan. Yolg‘onchilik qanday oqibatlariga olib kelishi qiziqarli va qulay usulda ko‘rsatilgan. Hikoyatdan olinadigan xulosani bolaning o‘zi chiqaradi. “Agar Durroj yolg‘onchi bo‘lmaganda edi, bu holatga tushmagan bo‘lardi” kabi xulosaga keladi. Demak, bolada “rostgo‘y, to‘g‘riso‘z bo‘lishim lozim”, degan qarashlar yig‘indisi paydo bo‘ladi. Navoiy asarlarining juda ko‘p o‘rinlarida yolg‘onchilik qoralanadi. Agar buyuk qalb sohibi ijodi bilan biror kishi tarbiyasida to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsata olsa, uning insoniyat hayoti oldidagi orzularidan biri ushlangan bo‘ladi.

Navoiy ijodida targ‘ib qilinuvchi fazilatlardan biri, bu – ilm olishdir. Jumladan, Imom Faxr ar-Roziy bilan Muhammad Xorazmshohning hammomdagi suhbatini berilgan hikoyat ham mantiqiy o‘ylashga chorlaydi. Boylik va amaliga qarab joy egallagan Xorazmshoh unga olim tomonidan



bo‘lgan munosabat tufayli uyatga qoladi. Chunki shoh butun boyligini tashqarida qoldirib kirgan, olim bo‘lsa o‘zi bilan – boshida ko‘tarib kirgan. Bu boyligni undan hech kim tortib ololmaydi. Agar talqin qiluvchi mohiyatni to‘g‘ri ochib berolsa, bolada ilmning har qanday boyligidan afzalligi haqida tushuncha shakllanadi. Bugungi kunning talabi bo‘lgan turli tillarni o‘rganish, kitob o‘qish lozimligi, boyligning hammasi tinimsiz mehnat, ilm olish orqali kelishini anglaydi.

Yana bir misol, “Lison ut-tayr” asaridagi butun boyligini kiyimiga osib olgan xasis va ziqna boy suv ichish uchun ariqqa engashganda tillalari og‘irlik qilib suvga g‘arq bo‘lishi ham kulgili holat. Agar uni ertaklar, multfilmlardagi qahramonlar siyosida tasavvur qilsak, yo‘l-yo‘l beqasam chopon kiygan, qorinlari qopday xo‘ppa semiz kishining suvga cho‘kayotgani ko‘z oldimizga keladi. Bu voqea kishida achinish hissini emas, ko‘proq nafrat hissini uyg‘otadi. Agar u pul, boyligni emas, atrofdagi odamlarni yaxshi ko‘rganida shu ahvolga tushmasdi.

Demak, biz Navoiy asarlarini targ‘ib qilishda juda uzoqdan emas, o‘z milliy-mahalliy hududimizga xos bo‘lgan an‘anaviy timsollar, tushunchalar zamiridan turib baho berishimiz, tushuntirishimiz lozim. Hikoyatlar ma‘nosini sharhlashda hayotdagi o‘xshash holatlarga, voqealarga bog‘lab talqin qilinsa, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu yo‘lda, albatta, qadim boy ma‘naviy merosimiz yo‘lboshchi, ma‘nolar xazinasi bo‘lib xizmat qilaveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik.T.: “Fan” 1990
2. “El desa Navoiyni” (Hazrati Mir Alisher Navoiy haqida rivoyatlar ) Xalq rivoyatlari. Toshkent “Cho‘lpon” 1991.
3. Hotam Umirov Adabiyotshunoslik nazariyasi T. A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti 2004.



## ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ДАРSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Ahmedova Sultonposhsha Rajabovna,**  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani 38-maktab  
yulduzhasanova@gmail.com

**Annotatsiya:**Darsning mazmunli o'tishi,unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati,bilim darajasini belgilaydi.Mazkur maqolada ona tili va adabiyot darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:**interfaol ,innovatsion texnologiya,charxpalak,tanlash metod.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish o'qituvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish,uning qalbida ilmga muhabbat uygotish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir.Zamonaviy pedagogik texnologiya-hozirgi zamon didaktikasiva pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli.

Innovatsion texnologiya-ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish,turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari.uning asosiy maqsadita'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik kiritish bo'lib,interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda o'qituvchi-yoshlarni ta'limga to'g'ri yo'naltirish juda katta ahamiyatga ega. Zero, yurtimizning kelajagi yoshlarimiz qo'lida. Ma'lumki, o'qituvchilarimizning ko'p vaqtlari maktabda o'tadi. Ularning ta'lim olishini to'g'ri tashkil etish esa, biz o'qituvchilarning zimmasidagi yuksak burchdir. “Yomono'qituvchi”- gapiradi. “Yaxshi o'qituvchi”- ko'rsatadi. Zamonaviy o'qituvchi esa dars jarayonlarida interfaol metodlardan samarali foydalangan holda o'qituvchilar ongidagi bo'shliqni tezda anglab, choratopib, ilm- ma'rifat bilan to'ldiradi. Xo'sh, interfaol metodlar ta'limda qanday samara beradi? Keling bu haqida to'xtalib o'tamiz. Interfaol metodlarning juda ko'p turlari mavjud. Masalan: Rolli o'yin, Davrasuhbati, Baxs-munozara, muammoli vaziyatlar, Zanjir, Chalaxat, Maktub, Blitsso'rov, Venn diagrammasi, Assisment texnologiyasi, Swottahlil, Sinkveyn va xakazo.Bu metodlardan ona tili va adabiyot darslarda foydalanish o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'qituvchi va o'qituvchi o'rtasida samimiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonlarida turli xil ko'rinishlarda kechadi.( yakka, juft, guruh, katta guruhlarda) namoyon bo'ladi. O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori mativatsiyaga ega bo'ladi. Axborat berish, olish va qayta ishlash, o'zaro muloqatga kirish, fikr bildirish, fikr almashish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Metodlarimiz o'quv jarayonida qanday tashkil qilinadi?

“Chalaxat” - metodidan o'qituvchilarimiz shoir va yozuvchilarimiz hayoti va ijodini, she'r va g'azallarini o'rganishda qo'llash mumkin. Shartishuki, darsligimizda berilgan matn, g'azal va she'rlarning ba'zi joylarini tushurib qoldirasiz. Metodni qo'llashdan oldin esa mavzuni to'liq o'rganishni o'qituvchilarga uy vazifa topshirig'i sifatida berasiz.“Rollio'yin”-metodidan adabiyot darslarida yozuvchilarimiz yozgan drammatik asarlarni dars jarayonida sahnalashtiriladi. Buning uchun o'qituvchilardan asarni to'liq o'rganib chiqish talab qilinadi. Bu o'qituvchilarda aktyorlik mahoratini shakllantiradigan metodlardan biridir.

“Muammolvaziyatlar” – metodining juda ko'p turlari mavjud.“Keys stade”, “FSMU” bularning barchasi muammoning kelib chiqishi, sabablari va yechimini o'rganadi. Ko'pincha bu metodni adabiyot darslarida qo'llaymiz.

Yozuvchi yozgan asarlarning ibtidosi va intihosidagi muammoli vaziyatlarni o'qituvchi va o'qituvchi hamkorligida o'rganib chiqiladi va xulosa tariqasida so'z o'qituvchilarga beriladi. Bu esa o'qituvchilar qalbidagi hayot atalmish buyuk bir jarayonga o'zining munosabatini bildirishga undaydi. To'g'ri va egri yo'l nima ekanini tushunishga yo'l ko'rsatadi.“Venn diagramma”- bu solishtirma metod, Bu metod orqali yozuvchi va shoirlar hayoti, ular yozgan asarlar solishtiriladi. O'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi. Metodning maqsadi o'qituvchilarda topqirlikni, solishtiribo'qish, bilimlarni yanada oshirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

“Blits so'rov” metodidan adabiyot darslarda ham ona tili darslarida ham foydalansa bo'ladi. Masalan: Adabiyot darslarida adabiy janrlarni o'qitishda jumladan, ertak, doston, hikoya, qissa, roman va xakazo. Ona tilidan esa, so'z turkumlarining guruhlarini aniqlashda foydalanish mumkin.



“Blits so’rov” metodi o’quvchilar qalbida ona tili va adabiyot yanada chuqurroq o’rganishga undaydi. Bu metodni mavzuni mustahkamlash darslarida foydalansa bo’ladi.

“Zanjir”— metodi esa butun boshli sinf o’quvchilarini darsga jalb etishni ko’zda tutadi. Metodni qo’llashdan oldin indinga o’tiladigan mavzu uy vazifasi sifatida va mavzuda biror bir ma’lumot qolmagan holda o’quvchilarga tarqatma sifatida beriladi.

“Assisment”— metodi o’quvchilarning olgan bilimlarini tez baholash imkonini beradi. Bunda shoir, yozuvchilarning asari yoki she’rlari bitta test, baytining ma’lum bir so’zlari tushirilgan yoki adiblarning bu yil tavalludining necha yilligi kabi savollar beriladi. Sanalib o’tilgan metodlarimiz ayniqsa, ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu metodlar orqali o’quvchilar faqat bilim olib qolmasdan olgan bilimlarini kelajakda qo’llay olish malakasini rivojlantiradi. Hayotga pazitiv nigoh bilan qarashga o’rganadi. Men o’ylaymanki, bu kabi ta’limiy metodlar umumiy o’rta ta’lim maktablarda, ta’lim jarayonida darsliklarda berilgan mavzular asosida metodga solinib kitobcha holatida darsliklar bilan birga o’quv jarayonida qo’llansa, ta’lim sifatimiz yanada oshishiga ishonch bildiram.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Erkaboyeva N.Q. Adabiyot fanidan savol javoblar to’plami. T. “Navro’z”, 2018
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. . Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., “Iqtisod”, 2012.



ABDULLA QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR” ASARI TAHLILI

**Jumabayeva Sohiba**

Xorazm viloyati Bog’ot tumanidagi

39- son maktabning ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

**Matniyozova Zaynabxon**

Xorazm viloyati Bog’ot tumanidagi

7- son maktabi ona tili va adabiyot o’qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy ijodining serqirra ekanligi, “O’tkan kunlar” asaridagi jarayonlar o’quvchi ma’naviyatini yuksaltiruvchi omillardan biri ekanligi ta’kidlanadi.

**Kalit so’zlar:** Abdulla Qodiriy, O’tkan kunlar, ma’naviyat, mutolaa, kitobxonlik, ijod, Otabek, Kumush, asar, Fuzuliy.

Adabiyot cheksiz ummon, u sarxad bilmaydi. Unda ko’plab buyuk shaxslar bilan birga kichik havaskorlar ham ijod qiladi. Ijodkorlardan ayrimlarigina adabiyotda tub burilish yasaydi, uni yangilaydi. Bunday daholardan biri, shubhasiz, Abdulla Qodiriydir. U o’z asarlari bilan nafaqat O’zbekiston, balki Turkiston xalqlari ma’naviy ravnaqiga hissa qo’shgan.

Or-nomus, insof va haqgo’ylik hayotining asosiy tamoyillaridan biri bo’lgan Abdulla Qodiriyning tabiat in’om qilgan iste’dodi chinakam o’zbekona mehnatkashlik bilan uyg’unlashgani uchun qalamidan asrlar mobaynida eskirmaydigan asarlar yaraldi. Uning asarlari har bir o’quvchi ma’naviy dunyosining shakllanishida alohida ahamiyatga ega. U yaratgan Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor obrazlari insonlardagi ijobiy xislatlarni qadrlash tuyg’usini kuchaytiradi. Muallif o’z tili bilan -Tasvirga qalam kuchi ojiz...-deb ta’kidlasa-da, asar mutolaasi jarayonidagi so’z bilan ifodalangan ezgulik kishi ruhini poklaydi. Kumushning ota-onasi misolida kamdan kam asarlarda uchraydigan, o’zbek millatiga xos chinakam oilaviy sog’lom muhitni ko’rsatadi. Mirzakarim qutidor Otabek tomonidan kelgan sovchilarga shunday javob beradi: “Otabek kabi bir yigitni o’g’il qilish sharafiga noil bo’la olsam o’zimni eng baxtli otalardan sanar edim, ammo bu to’g’rida hamma ixtiyor o’z qo’limda bo’lmay, orada ko’krak suti berib o’stirgan xotin ham bor...”-deya qutidor xotini Oftob oyim bilan maslahat qiladi. Qarang bu oiladagi muhit qanday go’zal. Qutidor tomonidan aytilgan shu bir gapning o’zi oiladagi o’zaro hamjihatlikni, hurmatni ko’rsatadi. Asarni o’qiyotgan har bir ota mulohaza qiladi, ehtimol ayrimlari o’rnak ham olar, asarni mutolaa qilayotgan ona esa muallif idrokiga, tasvir mahoratiga taxsin o’qiydi. Mana nima uchun bu asar xalq orasida sevimli?

Abdulla Qodiriy asarlari o’quvchi ma’naviyatini yuksaltiradi,- deya baho beramiz. U yaratgan “O’tkan kunlar” asarining ma’no mundarijasi, ifoda tili doirasi nihoyatda keng. Bu asarni o’qir ekanmiz adib ziyoli inson sifatida o’quvchilarning kitob o’qishiga turtki berib o’tadi. Otabek tilidan aytilgan “Fuzuliyning yaxshilab o’qish kerak” degan so’zlari, unga qo’shimcha ravishda Kumushning “Fuzuliy yaxshi kitob, men ham yolg’iz qolgan kezlarimda bu kitobdan boshimni ololmas edim...” jumllarini ilk bora o’qigan kitobxon, Fuzuliyning qanday ijodkor ekanligini ham, uning she’rlarining “ta’m”ini ham bilmasligi mumkin, lekin shunisi aniqki, Fuzuliyga va uning ijodiga nisbatan qiziqish uyg’onadi. Ba’zi kitobxonlar uchun Fuzuliy ijodi bilan tanishishga sabab bo’ladi. Asarda Otabek faqat Fuzuliyning emas, “Boburnoma”day muhtasham asar mutolaasi bilan ham mashg’ul bo’lishi bayon qilingan: “...Hasanali o’z hujrasidan kiyinib chiqdida Otabek yoniga kirdi. Otabek “Boburnoma” mutolaasi bilan mashg’ul edi”.

Fuzuliy devoni va “Boburnoma” kitoblarining qaysi jihatlari Otabekni maftun qilgan. Adib o’z qahramonini kitoblar mutolaasi orqali, ulardagi ma’naviy ozuqasi tufayli “Xon qiziga loyiq bir yigit” darajasida kamolga yetganligini ko’rsatmoqchi bo’lgan. Yozuvchi ma’lum ma’noda xalq orasida kitob mutolaasini targ’ib qilgan. Kitob mutolaasining naqadar qiziqarli, zavqli jarayon ekanligini, bu jarayonda o’quvchi bir zum o’z iztiroblarini, turmush tashvishlarini unutishini mahorat bilan tasvirlaydi: “Otabek xufton namozidan so’ng turmush tashvishlaridan forig’ bo’lish kayfiyatida, moychiroq yoniga o’tirib, Fuzuliy devonini qo’liga oladi. Nima sababdandir unda “biror fojeaga tushkuvchilik holati bor edi. Kishi iztirobga tushgan kezlarida tilab emas, ixtiyorsiz ba’zi bir ishlarga urinadir”. Shuningdek, u ham jiddiy bir ravishda Fuzuliy mutolaasiga berildi”, -deya kitob mutolaasi insonga ma’naviy ozuqa berish bilan birga, turmush tashvishlarini, tushkunlikni bir zum unutishga yordam berishini aytib o’tgan.



“O‘tkan kunlar” asarining badiiy asar sifatida umrini uzaytirgan, uning hozirgi muxlislar nazarida ham qadr-qimmat topganligining bosh omillaridan biri – unda kitobxonni o‘ylashga, mushohadaga undovchi san’atkorona badiiy tasvir vositalarining mavjudligi bilan birga, o‘z xalqini kitob mutolaasiga undovchi, targ‘ib qiluvchi jihatlarning borligi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar”.
2. Xurshid Do‘stmuhammad. Ijod - ko‘ngil munavvarligi.
3. Internet saytlari



## О‘QUVCHILAR ONGIGA ABDULLA AVLONIYNING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARINI SINGDIRISH

**Mahmudova E’zoza Rahimjonovna**

Namangan viloyati Pop tumani  
2- son umumta’lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada A.Avloniyning ta’lim va tarbiyaga doir ilmiy qarashlari keltirilgan. Ushbu qarashlarni maktab o’quvchilarining ongiga singdirish, yaxshilik va yomonlik, to’g’riso’zlik va yolg’on gapirishning oqibatlari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** Abdulla Avloniy, tarbiya, ta’lim, pedagogika, metodika, qarash, hikoya, o’quvchi, xulq, yolg’on, axloq.

O’zbek xalqining olis tarixiy o’tmishiga nazar solsak, ajdodlarimiz yoshlar ta’lim-tarbiyasini yuksaltirishga doimo jiddiy e’tibor qaratib kelgan. Yusuf Xos Hojib, Imom al Buxoriy, Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi buyuk ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari buning yorqin misoli sanaladi. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda ta’lim-tarbiya jarayoni ilmiy-metodik jihatdan to’g’ri, samarali bo’lishi pedagogning mahorati bilan bog’liqdir. Globallashuv davri deb qaralayotgan bugungi kunda tarbiya masalasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun oila-maktab-mahalla hamkorligi muhim vosita sanaladi.

Ma’rifatparvar ijodkor Abdulla Avloniy: “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan edi.

Buyuk ma’rifatparvarning bu qarashlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo’lgan bo’lsa, hozirgi kunimiz uchun yanada dolzarbdir. Chunki ta’lim-tarbiya bu–kelajak poydevori sanaladi. Shu ma’noda, ta’lim-tarbiya tizimini mustahkamlash orqali istiqbolli kelajakni yaratamiz, ko’zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etamiz.

Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “...Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” deya ta’kidlagan edi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablari 5-sinf Adabiyot darsligida Abdulla Avloniyning tarjimai holi, “Vatan” hamda “Vatanni suymak” asarlari berilgan.

O’zbek pedagogikasi tarixida A.Avloniy pedagogikani eng birinchilardan bo’lib, “bola tarbiyasining fani” deb ataydi. Bu bilan u pedagogika fanini chuqur bilganligidan dalolat beradi. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “Axloq”, “Tarbiya”, “Yaxshi xulqlar”, “Yomon xulqlar” deb nomlangan qismlarga ajratilishida ham katta ma’no-mohiyat mavjud.

Asarda bola uchun tarbiyani tug’ilgan kundan boshlagan ma’qul deya ta’kidlab, bola tarbiyasini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Tarbiya zamoni;
2. Badan tarbiyasi;
3. Fikr tarbiyasi;
4. Axloq tarbiyasi

Tarbiya zamoni qismida tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur degan savolga javobni uy bekasi ona vazifasi, ikkinchi maktab vazifasidir deydi. Badan tarbiyasi qismida esa, insonga o’qib, o’rganmoq uchun kasalsiz tana lozimligini ta’kidlaydi. Sog’lom qilib o’stirish ota-onaning burchidir. Fikr tarbiyasi uchun esa o’qituvchi va muallimlar mas’ulligini aytib o’tadi.

Avloniy so’zlashuv odobiga ham alohida e’tibor berib, insonning qadr-qimmatini belgilashdagi mohiyatiga yuqori baho berib, “So’z insonning daraja kamolini, ilm-fazlini o’lchab ko’rsatadurg’on tarozusidir” – deydi. Shuningdek, “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo’lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurg’on, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan” ekanligini e’tirof etadi.

Abdulla Avloniyning “Yomonliq jazosi” hikoyatida Qosim ismli bolaning fojiali taqdiri haqida hikoya qiladi. Hikoyada bola ota-onasining so’ziga kirmasdan nuqul yolg’on gapirishi, bolalar bilan urushib har kuni kiyim-boshini yirtib kelib, onasining mehmon uchun asrab yurgan taomlarini yeb, onasi so’ragan paytda, mushuk yegandir deb yolg’on gapirishini aytib o’tadi. Hikoya so’nggida esa, otasi bolasini sinash uchun stol ustiga bir tangani qo’yib, o’zini uxlaganga solib yotganida Qosim tangani og’ziga solib, otasi ushlab olmoqchi bo’lganda esa, tangani yutib



yuborib, halqumiga tiqilib jon beradi.

Ushbu qisqagina hikoya orqali o‘quvchilarni yolg‘on gapirmaslikka, yomon ish qilmaslikka, har bir yomon odamning yomon ishi bir kuni boshiga yetishi muqarrar ekanligini tushuntirib o‘tadi.

“Ittifoq” hikoyatida esa, har bir odam birgalikda ittifoq bo‘lib birlashsalar, barcha yomonliklardan ustun kelishi g‘oyasini ilgari suradi. Bunda chumolilar haqida aytib, ular kichkina jonzot bo‘lishiga qaramasdan nihoyatda g‘ayratli va ittifoq bo‘lib yashaydigan hayvondir. O‘z ichida podshohlari va kattalari, askarlari ham bo‘ladi, kattalari nima buyursa shuni qiladi. Agar bitta dushman bostirib keladigan bo‘lsa, hammasi birgalashib unga hujum qilishi oqibatida dushman qochishini aytib o‘tib, yung juda mayda, agar uni birgalashib arqon qiladigan bo‘lsa, filni ham bog‘lash mumkin deya xulosa qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Abdulla Avloniyning ta‘lim-tarbiya sohasidagi qarashlari, o‘zbek xalqining turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning boy pedagogik merosi maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatli manbalarning biri bo‘lib sanaladi. O‘quvchilarga ham ana shu qarashlar asosida ta‘lim va tarbiya berish biz pedagoglarning asosiy vazifalarimizdan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning softligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjuman, T., 2017
2. Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar”. I jild, T., 2006.
3. Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar”. II jild, T., 2006.
4. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Alimova Gulshoda,**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
36-maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi  
Telefon: +998919951292

***Annotatsiya:** Ushbu maqola Ahmad Yassaviyning hikmatlari va ularga xos xususiyatlar, ularning tarbiyaviy ahamiyati, nafsga qarshi kurash masalasi, Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari, oshiqning shariat, tariqat, ma`rifat bosqichlaridan o`tib haqiqat martabasiga yetishishi haqida so`z yuritiladi.*

***Kalit so`zlar:** hikmatlar, tasavvuf, shariat, tariqat, ma`rifat, tarbiya, oshiq.*

Ahmad Yassaviy – mutasavvuf shoir. Adib tasavvufni inson ma`naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida biladi. Bundan maqsad insoniyatni to`g`ri yo`lga da`vat etishdir. To`g`ri yo`l haqiqatni anglashga olib kelmoq kerak. Haqiqatni anglash o`zlikni anglashdir. Bunga erishmoq uchun kishining hidoyat yo`liga kirmog`i, butun kuch va vujudini shu yo`lga qaratmog`i kerak. Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma`rifat bosqichlaridan o`tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o`rinli bo`ladi. Shoir bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o`zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta`kidlash o`rinli bo`ladi. Badiiy asarlar ta`sirchanligi, musiqiy ohangi, jozibasi bilan kishini o`ziga jalb qiladi shu asnoda ular insonlar ruhini tarbiyalaydi. Adabiyot insonlarga dunyo hodisalari mohiyatini anglash, insonga xos tuyg`ularning rangin qirralarini his eta olish, insoniy fazilarlar va nuqsonlar mohiyati haqida o`ylash imkonini beradigan, har bir shaxsni ruhiy kamolot hamda yuksak ma`naviyat egasi sifatida shakllantiradigan muhim vosita hamdir. Adabiyot go`yo yerdan otilib chiqayotgan toza buloq suviga o`xshaydi. O`sha buloq suvining bir tomchisi ham jonimizga huzur bag`ishlagani kabi adabiyot ham sekinlik ila qalbimizning tubtubiga singib, hayot davomida orttirgan qalb jarohatlarimizga malham bag`ishlaydi. O`qiyotgan har bir asarimiz bizni yangi olamga, turfa taqdir, chigal qismatlar ro`parasiga olib chiqadi. Asar voqealari bilan ulg`ayib, mashaqqatli yo`llarni ortda qoldirib, nurlil tonglarni qarshilab, muammolar yechimiga guvoh bo`lamiz.

Bu yechim esa bizga xatolarimizni tan olib, nurlil kelajak uchun dadil qadam tashlashga undaydi. Inson uchun bugungi kunda tansiq bo`lib borayotgan mehrning ulug`ligini atoqli adibimiz Said Ahmadning “Qorako`z Majnun” hikoyasini o`qib guvoh bo`lganmiz. Oddiy jonivorning egasi Saodat ayaga bo`lgan mehri biz insonlarni larzaga soladi, tarbiyalaydi... Asarni o`qirganmiz har tomonlama mukammal qilib yaratilgan inson ham orzu havaslar, yolg`on ishq – muhabbat ortidan quvib qiymati tengsiz, olmosdek kamyob mehrni unutib, Bo`rixonning ahvoliga tushadi. Ajdodlari avaylagan qadri baland milliy qadriyatlarini unutib qo`yadi. Bu – nafsga qarshi kurash masalasi. Shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsni jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo`lsa, bunday sabrli ishq egasining “mahshar kunida armoni” bo`lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida “Nafsni tepib dargohiga loyiq bo`lg`il” deb ta`kidlanadi. Bu nafsini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshiqlik martabasiga ko`tarila olishiga doir mulohazadir. Ishq tushding, o`tga tushding, kuyib o`lding, Parvonadek jondin kechib axgar bo`lding, Dardga to`lding, g`amga to`lding, telba bo`lding, Ishq dardini so`rsang hargiz darmoni yo`q. Ushbu bandda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko`rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o`zgarishlar bo`ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisoli o`tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tebrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho`g`) bo`lgan kapalakka o`zshatadi. Eng muhimi, ishq o`tida dard, g`am hamda telbalik bor. Ammo bu dardning darmoni topilgan emas. Boshqa bir mumtoz vas sho`ir ta`biri bilan aytganda “bu dardni bedavo derlar” (Mashrab). Ishqning bunday xususiyatlarini ta`riflab Alisher Navoiy “Mahbub ulqulub” asarida yozadi: “buni ko`rmagan kishi bo`lmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron- ufiroq mundin iboratdur...”. Shu ishq tavsifiga bag`ishlab Navoiy “Layli va Majnun” dostonini tozgan sizga ma`lum. Ahmad Yassaviy ta`kidlaydiki, ishq odamning “Majnun sifat aqlin olib laylo qilur”, yana davomidan ta`kidlaydi – “Ollah haqqi bu so`zlarni yolg`oni yo`q”. Yassaviy har vaqt nafs



haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga “shum” sifati beriladi. Shuningdek, shoir “nafsi bad”, “nafs yo`li”, “nafs ilgi” singari istioralarni ham qo`llaydi. Adib to`g`ridan to`g`ri nafsga qarshi kurashni , uning yo`rig`iga yurmaslikni targ`ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko`rsatib beradi. Nafs yo`lig`a kirgan kishi rasvo bo`lur, Yo`ldan ozib, toyib, to`zib gumroh bo`lur. Yotsa, qo`psa shayton bilan hamroh bo`lur, Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. B. To`xliyev, B. Karimov. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent. 1991-yil.



«AVESTO» BADIYYATIDA SAN'ANTINIG O'RNI

Kayumov Nodir Nayimovich  
SamDU doktoranti  
tel+998913144618

**Annotatsiya:** Tashxis va jonlantirish san'ati badiiy san'atlar ichida go'zal va diqqatga sazovor san'at turlaridan bo'lib, badiiy so'z san'atlarining ma'naviy guruhiga kiradi. Bu badiiy san'at turining vujudga kelishi, ibtidoiy zamon odamlarining paydo bo'lishi va ularning ibtidoiy ongi rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozma manbalari va zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» da tashxis san'atining o'rni nihoyatda beqiyos. Mazkur maqolada tashxis va jonlantirish san'atining nazariy va poetik xususiyatlari, «Avesto» kitobi va uning badiiyatida tutgan o'rni, uning vositasida yaratilgan betakror badiiy tasvirlar aniq dalillar asosida yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** *tashxis, jonlantirish, “Avesto”, san'at, poeziya, obraz, mif, tasavvur,*

«Tashxis adabiyotda jonlantirish ma'nosida, jonsiz va tabiat hodisalariga jon ato etib, ularni odam ko'rinishida namoyon etishi, turli xildagi hasharot va parrandalarni inson tilida gapirtirishdir. Shoir tashxis san'ati bilan jonsiz narsalarga jon bag'ishlab, ularni odam ko'rinishida namoyon etadi». [4:102].

Tashxis yo jonlantirish san'ati tasvirlashda keng imkoniyatga ega bo'lib, moddiy va ma'naviy unsurlarni jonlantirishda ko'p qo'llaniladi. Tabiatdagi vahshiy hayvonlar va qushlarni tasvirlashda bu badiiy san'at turi o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Fors-tojik mumtoz adabiyoti tarixida turli hayvonlar va qushlarni, jumladan, tulki, sher, sigir, tovuq, to'ti, bo'ri, fil, ot, qoplon, chumoli, qarg'a, it, mushuk va boshqa jonivorlarning badiiy adabiyotda insonga xos sifatlarini o'zida gavdalanitirib, odamlardagi xarakter va sifatlarini olganini ko'rishimiz mumkin.[5:135]. Mumtoz she'riyatda tabiatdagi hayvonlar va qushlar kundalik yumushlarida odamlarga xos harakatlarni qabul qilgan xolda turli amallarni bajarib, o'zlarining munosabatlarini bayon etadilar.

Jahon xalqlari adabiyoti namunalarida tashxis san'atiga mansub ko'plab misollarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan qadim zamonlardan eroniy xalqlarning mif-afsonalarida va keyinchalik fors-tojik mumtoz adabiyotining namunalarida bu san'at turi badiiy obrazlarning yaratilishida muhim ahamiyat kasb etgan. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozma manbasi hisoblanmish «Avesto» kitobida ham mazkur san'at namunalari so'zning shoirona ifoda etishda va turli badiiy obrazlarning tasvirlashda foydalanilgan.

Muqaddas «Avesto» kitobi O'rta Osiyo xalqlarining ibtidoiy davrdagi falsafiy va ilmiy qarashlari, Mazdoparastlik dinining qonun qoidalari to'plami va badiiy adabiyotning yorqin namunalaridan tarkib topgan. «Avesto» kitobining she'riy matnlarida so'zni yuksak badeiyat va lirik tushunchalar bilan boyitish maqsadida juda ko'plab so'z san'atlaridan foydalanilgan. Professor X.Mirzozoda ta'kidlagandek O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi she'riy namunalari va badiiy san'atlardan foydalanish muqaddas «Avesto» kitobidan boshlangan.[5:67].

«Avesto» kitobida badiiy san'at turlaridan tashxis, talmih, tavsif, mubolag'a, istiora va savol-javobni uchratishimiz mumkin. «Avesto»-ning turli qismlarida foydalanilgan badiiy san'atlar asosan, mifologik va afsonaviy voqea-hodisalar bayonida, Zardushtning Oliy Xudo-Ahuramazda va boshqa qahramonlar, ma'budlar, farishtalar bilan kechgan suhbatlari jarayonida so'zni ifodali va badiiy chiqishi uchun qo'llanilgan. «Avesto»ning turli qismlarida foydalanilgan badiiy san'atlar mazkur kitobni bizga adabiy jihatdan katta ahamiyatga sohibligini ko'rsatadi va qahramonlarning voqea-hodisalar jarayonida mazmunli harakatlanishiga ko'mak beradi.

Tashxis va jonlantirish san'ati vositasida «Avesto» kitobida turli ashyo va jismlar, voqea-hodisalar, hayvonlaru daraxtlar va boshqa tabiatdagi unsurlarni jonlantirib, ularga insonga xos xususiyatlar: so'zlash, o'ylash, kulish, jang qilish, yig'lash, ovqatlanish, maqtanish, g'ururlanish va hayotdan zavq olish sifatlarini in'om etilgan.

«Avesto» kitobida tashxis va jonlantirish san'atini tabiatdagi turli voqea va hodisalarning mohiyatiga qarab to'rtta katta guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

1) Mavhum narsalarni jonlantirish guruhiga turli ko'zga ko'rinmaydigan faqat tasavvur qilish mumkin bo'lgan mavhum fazilatlaru hodisalar jonlantiriladi. Ya'ni bu guruhda jonlantiriladigan narsalarni inson ko'zi bilan ko'rishi va ilg'ashi mumkin emas. Bu kabi narsalarni inson faqatgina



aql yordamida va tasavvur qilish orqali anglashi mumkin. Bu guruhda jonlantirilgan badiiy obrazlar qatoriga bizlar Qahr, G'azab, Duruj, Yomonlik va Yaxshilikni kiritishimiz mumkin.

2) Turli o'simliklarni jonlantirish guruhi. Bu guruhda tabiatda uchraydigan turli o'simliklar va giyohlar jonlantirilib, insoniy qiyofa va fazilatlar sohibiga aylanib, voqea jarayonida o'zlarining hatti-harakati bilan ishtirok etadi. Masalan, bu guruhga jonlantirilgan shunday obrazlar borki ular voqea-hodisa jarayonida insonning to'liq hatti-harakatlarini ifodalaydi. Shulardan biri bu insonlarga kuch va quvvat baxsh etuvchi Xaum o'simligidir. «Avesto»da jonlantirilgan o'simliklar va giyohlar badiiy obrazlariga Xaum, Xarvistuxmak, Anush, Barsam va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

3) Turli hayvonlarni jonlantirish guruhi. Bu guruh tarkibiga jonlantirilib, insoniy xususiyatlarni kasb etgan juda ko'plab turli xayvonlar kiradi. Mazkur guruhda turli hayvonlar inson xususiyatlarini va xissiyotlarini o'ziga qamrab, odamlar kundalik hayot tarziga ta'sir etib, o'zlarining foydali jihatlarini namoyish etadi. Masalan hayvonlar insoniy fazilatlar egasiga aylanib, voqea jarayonida yig'laydilar, g'am-g'ussaga muhtalo bo'ladilar, xursandchilik qiladilar va tafakkur olamiga sho'ng'ib, olam haqida o'y suradilar. Biz buning yorqin misolini «Avesto»-ning Yasna qismi 29-xotida ko'rishimiz mumkin. Ushbu misolda Gaushurvan aslida sigir bo'lib, otashparastlar oldida bora-bora unga nisbatdan talpinish va ezozlash hissi kuchaygandan u butun chorvolarning ma'budi darajasiga erishadi. Gaushurvan Zardusht bilan bo'lgan suhbat jarayonida so'zlash fazilatiga sohib bo'lib, Xashm va Ahrimanning unga nisbatdan qilgan jafakorligi va sitamidan payg'ambarga shikoyat qiladi. Mazkur guruhda insoniy sifatlar berilgan hayvonlar tashxis san'atining bo'linmas shakli tamsil asosida voqea-hodisa jarayonida badiiy obraz sifatida qatnashadilar. Bu guruhda insoniy sifat va fazilatlar berilgan hayvonlar misolida biz Gaushurvan, Xosdayush, Xrafstra, Babar, Aretna, Fradadofshu Vazag' va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

4) Tabiat unsurlarini jonlantirish guruhi. Mazkur guruh «Avesto»-da jonlantirilgan eng katta guruhlardan bo'lib, u o'z navbatida ikta katta guruhga bo'linadi.

a) Jonlantirilgan va insoniy fazilatlar berilgan tabiatning moddiy unsurlari, chunonchi tog' va daryolar, er va yulduzlar, quyosh va sayyoralardan tashkil topgan. Biz mazkur guruhda badiiy obraz sifatida namoyon bo'lgan Mitra, (Mehr), Alburz («Avesto» -da Haro, Haraiti, Haraberezaiti), Arezvar, Ardevi, Asnavant, Voruna, Aurvant ko'rishimiz mumkin.

b) Tabiat hodisalarining jonlantirilishi. Bu guruhda turli tabiat hodisalari jonlantirilib, o'zlaridan insoniy hatti-harakatlarni namoyon etadilar. Masalan suv, olov, shamol, momoqaldiroq tashxis san'atining badiiy imkoniyatlaridan kelib, chiqib o'z navbatida insonga xos so'zlash, yig'lash, xursand bo'lish, fikrlash, jang qilish, tamaddi qilish kabi xislatlarga ega bo'lib, inson taqdiriga o'zlarining yaxshilik va yomonliklari bilan ta'sir qiladilar. «Avesto»-da ko'pgina tabiat hodisalari jonlantirilgan va keyinchalik insonlarning ular haqidagi tasavvurlari rivojlanib, mazkur tabiat hodisalari ilohiylashtirilgan. Biz ushbu guruhga mansub misollarni jonlantirilgan va badiiylashtirilgan momoqaldiroq xudosi Indra, Asiya besh kun homiysi, Aredisura, Anoxita, Anam Nanat suv ma'budi, Shamol («Avesto» -da *Vata*, pahlaviy tilida *Vat*) shamol ma'budi obrazlari misolida ko'ramiz. Bu guruhda jonlantirilgan tashxislar aslida ibtidoiy odamlarning dunyo hodisalari haqidagi mifologik qarashlari natijasida shakllangan, keyinchalik muqaddas «Avesto» kitobida tirik insonlar qiyofasiga kirib, yuksak badiiy obraz sifatida namoyon bo'lgan. Muqaddas «Avesto» kitobida jonlantirilgan va insoniy fazilatlariga sohib bo'lgan tabiat hodisalari gohida odamlarga naf keltirib, yaxshi amallarni bajaradi va gohida insonlarga o'zlarining kuch-quvvatlaridan mag'rurlanib, yomonlik va zulm qiladilar. Aslida mazkur tabiat hodisalari inson tafakkurida tabiatda yuz beradigan turli tabiiy va fizikaviy jarayonlarning asl mohiyatini anglamasdan, ular haqida mifologik tasavvurlar kelib chiqishi natijasida paydo bo'lgan.

Yuqoridagi qarashlardan kelib, chiqib «Avesto»-da mavjud jonlantirilgan badiiy obrazlarni insonlarga yaxshilik qilib, ularning manfaatiga xizmat qiladigan, odamlarni himoya qiladigan va doimo insoniyatga g'am-tashvish keltirib, ocharchilik, kasallik tarqatib, yomonlik qilish xususiyatlariga ega ikki qismga ajratish mumkin. Insonlar manfaati uchun xizmat qiladigan va tashxis san'ati vositasida badiiy obraz sifatida namoyon bo'ladigan obrazlar qatoriga Voruna, Mitra, Xauma, Anush, Barsam, Auravant boshqalar kiradi.

«Avesto» kitobida tashxis san'ati asosida insoniyatga yomonlik qilib, doimo kulfat va falokatlar eltuvchi obrazlar qatoriga Ahriman, Indra, G'azab, Duruj (yolg'on) tasvirlangan.

“Avesto” kitobida keltirilgan tashxis san'atining tadqiq qilish natijasida anglashimiz mumkin kim, mazkur san'at muqaddas kitobda o'zining bor poetik xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi.



Tashxis “Avesto” kitobining badiiy qiymatini oshirishda, voqealarni go’zal va betakror bayon qilishda va badiiy obrazlarni jonli, hayotiy tarzda tasvirlashda beqiyos ahamiyatga sazovordir.

**АДАБИЙОТ РО’УХАТИ:**

1. Avesto. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015
2. Avasto. (Nashrga tayyorlovchi Jalil Do’stxoh). – Dushanbe: Qonuniyat, 2001
3. Zehniy T. San’ati suxan. (So’z san’ati) – Dushanbe: Irfon, 1967
4. Mirzozoda X. Ta’rixi adabiyoti tojik. Birinchi kitob (1). – Dushanbe: Maorif, 1987
5. Hodizoda R., SHukurov M., Abduqabborov T. Farhangi istilohoti adabiyotshinosi. – Dushanbe: Irfon, soli 1966.
6. Homidiy H., Abdullaeva SH., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati. – Toshkent: “O’qituvchi” 1970



## ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

**Ruzmatova Adolat Yusupovna,**

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani

32-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Telefon: +998993476253

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko‘pgina fazilatlarini ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mustaqillik g‘oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o‘zbek adabiyoti xazinasiga o‘zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo‘shgan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g‘oyalari hamohang bo‘lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A. Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko‘pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqloq yaratib bergan erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o‘rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma‘noda, A. Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o‘rinlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o‘tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta‘sirida yuz bergan voqealar favqulodda bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo‘lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan obrazlar bo‘lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko‘proq umumlantirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo‘lib, davr voqeligi tasviriga bag‘ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo‘lib o‘tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko‘raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo‘ja domla, shahar maorif bo‘limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o‘ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo‘ja domla xarakteri jonli va to‘laqonli qilib gavdalanadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo‘lgan dramaturgiya sohasida ham iste‘dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko‘targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo‘lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og‘riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo‘ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta‘sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Komediya Dehqonboy, Hafiza va Qo‘ziyev kabi sofdil, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o‘jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o‘xshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og‘riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo‘liga to‘siq bo‘layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo‘lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog‘liq. Komediya zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari nopok illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targ‘ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo‘lishini ko‘rsatishda satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko‘rsatishga erishadi.



Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo‘msagan, adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”,-“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-son.



MAQOLLAR - INSONNI TARBIYALAYDIGAN VOSITA

**Sadiqova Mohinur,**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

49-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Telefon: +998995097978

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi turi hisoblanmish maqollar va ularning ibratli tomoni, maqollarning turi, kelib chiqishi, mavzusi, inson hayotidagi o'rni haqida ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, maqol, tarbiya, ibratli saboq, so'z ko'rki.*

Xalq og'zaki ijodida tarbiyaviyligi bilan maqollarning o'rni beqiyosdir. Maqollar odamlarning hayoti va turmush jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlarini, umid va orzularini ifodalaydi. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ifodalanadi.

Alisher Navoiy o'zining ijodiy faoliyatida xalq og'zaki ijodini o'rganib, kishilar hayotida maqolning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida to'xtalib shunday baytni yozadi:

Kishiga necha mushkul hol, Kimki bilay desang maqolin angla, Hikmatu aql anga erur halol. Asli bilay desang oni angla.

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rgan-kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosalaridir. Masalan, “Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas”, – deymiz. Bu so'zlar zamirida vatanidan ayrilib, musofirlikning achchiq alamlarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notanish odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro'yi somon bo'lgan kishning iztiroblari yotibdi. Yo bo'lmasa, “O'zgalar yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l”, – degan maqolni oling. Bu so'zlar zamirida ham katta hayotiy tajribalar mujassam. Beixtiyor shoh va shoir bobomiz Bobur Mirzo esga tushadi. Hindistondak katta mamlakatga podsholik qilgan kishi yurtdoshlari Andijondan qovun olib borganlarida yig'lagan edi. Haqiqatan ham, Vatan mehridan kuchli narsa dunyoda yo'q.

Ko'plab maqollarda ichki qofiya bo'ladi. Masalan, yuqoridagi ikki misolning birinchisida “omon” bilan “somon”, ikkinchisida “sulton” bilan “cho'pon” o'zaro ohangdosh, ya'ni qofiyadoshdir. Shu jihatdan ular topishmoqlarga o'xshab ketadi. Masalan, “Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor”, – desak, bu yerda ham “bo'yi” va “to'ni” so'zlari qofiyadosh. Shunga qaramay, u maqol emas. Chunki unda xulosa yo'q. Hukm yo'q. Unda sirlilik bor. Unda hamma so'zlar bir narsani bekitishga qaratilgan. U narsaning belgilari berilyapti, xolos. Maqolda esa, aksincha, xulosa beriladi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizni “So'z ko'rki – maqol”, deb bejiz aytilmagan), uning ta'sir kuchini oshiradi.

Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytiladi. bu fikr rad etib bo'lmaydigan hokum shaklida keltiriladi. Masalan, “Ona yurtning – oltin beshiging”, “Olim bo'lsang, olam seniki!” kabi maqollarni hech bir e'tirozsiz qabul qilamiz.

“Maqol so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “so'z” degan ma'noni bildiradi. Uni otalar so'zi ham deydilar. Maqol she'riy shaklda ham bo'lishi mumkin. Masalan:

Oltovlon ola bo'lsa, Og'zidagin oldirar.

To'rtovlon tugal bo'lsa, Tepadagin endirar.

Bu maqol birlik, o'zaro ittifoqlik haqida. Bir kishining olti o'g'li bo'lsa-yu, ular bir-birlari bilan ahil bo'lmasa, og'zidagilarini oldiradi. Ular istagan odam xafa qilaverishi mumkin. To'rt aka-uka ahil bo'lsa, ular ko'p ish qila oladi. Ya'ni, ahillik bo'lsa, oz odam bilan ham katta ishlar qilishi mumkin. Ahillik bo'lmasa, ko'p ish bilan ham hech ish qila olmasan. Bu – ma'nosi.

Ifodaga kelsak, “oltovlon”, ko'pchilikni, “to'rtovlon” ozchilikni anglatyapti. “Ola bo'lmoq” noahillik, “tugal bo'lmoq” ahillikni bildirmoqda. “Og'zidagin oldirmoq” bor narsalarni boy deb berib qo'ymoq, “tepadagini endirmoq” qiyin, murakkab ishlarni ham osongina hal qilmoq ma'nolarini anglatyapti.

Maqollar xilma-xil mavzularda bo'lishi mumkin. Masalan, do'stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo. Aziz farzand, xalq maqollari – boyligimiz. Ota- 11 Ноябрь 2021 8-қисм Тошкент bobolarimizning siz bilan qoldirgan xazinalaridan biridir. Ularni izlab toping, sevib o'rganing. Kerak o'rinlarda foydalanishni odat qiling. Shunda ular



butun umringiz davomida hamrohingiz bo`ladi. Har gapingizning salmog`i oshadi. Sermazmun, ta`sirchan, keskir bo`ladi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O`zbek xalq maqollari. Toshkent. 2003-yil.
2. S. Ahmedov, R. Qo`chqorov. Adabiyot. 5-sinf darsligi. Toshkent. 2020
3. Internet ma`lumotlari.



## YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Yo'ldoshova Shodiya,

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

47-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998995087894

***Annotatsiya:** Ushbu maqola Ahmad Yassaviyning hikmatlari va ularga xos xususiyatlar, ularning tarbiyaviy ahamiyati, nafsga qarshi kurash masalasi, Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishishi haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** hikmatlar, tasavvuf, shariat, tariqat, ma'rifat, tarbiya, oshiq.*

Ahmad Yassaviy – mutasavvuf shoir. Adib tasavvufni inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida biladi. Bundan maqsad insoniyatni to'g'ri yo'lga davat etishdir. To'g'ri yo'l haqiqatni anglashga olib kelmoq kerak. Haqiqatni anglash o'zlikni anglashdir. Bunga erishmoq uchun kishining hidoyat yo'lga kirmog'i, butun kuch va vujudini shu yo'lga qaratmog'i kerak. Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o'rinli bo'ladi. Shoir bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o'zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Badiiy asarlar ta'sirchanligi, musiqiy ohangi, jozibasi bilan kishini o'ziga jalb qiladi shu asnoda ular insonlar ruhini tarbiyalaydi. Adabiyot insonlarga dunyo hodisalari mohiyatini anglash, insonga xos tuyg'ularning rangin qirralarini his eta olish, insoniy fazilarlar va nuqsonlar mohiyati haqida o'ylash imkonini beradigan, har bir shaxsni ruhiy kamolot hamda yuksak ma'naviyat egasi sifatida shakllantiradigan muhim vosita hamdir. Adabiyot go'yo yerdan otilib chiqayotgan toza buloq suviga o'xshaydi. O'sha buloq suvining bir tomchisi ham jonimizga huzur bag'ishlagani kabi adabiyot ham sekinlik ila qalbimizning tubtubiga singib, hayot davomida orttirgan qalb jarohatlarimizga malham bag'ishlaydi. O'qiyotgan har bir asarimiz bizni yangi olamga, turfa taqdirlar, chigal qismatlar ro'parasiga olib chiqadi. Asar voqealari bilan ulg'ayib, mashaqqatli yo'llarni ortda qoldirib, nurli tonglarni qarshilab, muammolar yechimiga guvoh bo'lamiz.

Bu yechim esa bizga xatolarimizni tan olib, nurli kelajak uchun dadil qadam tashlashga undaydi. Inson uchun bugungi kunda tansiq bo'lib borayotgan mehrning ulug'ligini atoqli adibimiz Said Ahmadning “Qorako'z Majnun” hikoyasini o'qib guvoh bo'lganmiz. Oddiy jonivorning egasi Saodat ayaga bo'lgan mehri biz insonlarni larzaga soladi, tarbiyalaydi... Asarni o'qirkanmiz har tomonlama mukammal qilib yaratilgan inson ham orzu havaslar, yolg'on ishq – muhabbat ortidan quvib qiymati tengsiz, olmosdek kamyob mehrni unutib, Bo'rixonning ahvoliga tushadi. Ajdodlari avaylagan qadri baland milliy qadriyatlarni unutib qo'yadi. Bu – nafsga qarshi kurash masalasi. Shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsnii jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo'lsa, bunday sabrli ishq egasining “mahshar kunida armoni” bo'lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida “Nafsnii tepib dargohiga loyiq bo'lg'il” deb ta'kidlanadi. Bu nafsini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshiqlik martabasiga ko'tarila olishiga doir mulohazadir. Ishq tushding, o'tga tushding, kuyib o'lding, Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding, Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding, Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q. Ushbu bandeda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko'rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o'zgarishlar bo'ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisoli o'tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tegrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho'g') bo'lgan kapalakka o'zshatadi. Eng muhimi, ishq o'tida dard, g'am hamda telbalik bor. Ammo bu dardning darmoni topilgan emas. Boshqa bir mumtoz vas sho'ir ta'biri bilan aytganda “bu dardni bedavo derlar” (Mashrab). Ishqning bunday xususiyatlarini ta'riflab Alisher Navoiy “Mahbub ulqulub” asarida yozadi: “buni ko'rmagan kishi bo'lmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron- ufiroq mundin iboratdur...”. Shu ishq tavsifiga bag'ishlab Navoiy “Layli va Majnun” dostonini tozganii sizga ma'lum. Ahmad Yassaviy ta'kidlaydiki, ishq odamning “Majnun sifat aqlin olib laylo qilur”, yana davomidan ta'kidlaydi – “Ollah haqqi bu so'zlarni yolg'oni yo'q”. Yassaviy har vaqt nafs



haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga “shum” sifati beriladi. Shuningdek, shoir “nafsi bad”, “nafs yo`li”, “nafs ilgi” singari istioralarni ham qo`llaydi. Adib to`g`ridan to`g`ri nafsga qarshi kurashni , uning yo`rig`iga yurmaslikni targ`ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko`rsatib beradi. Nafs yo`lig`a kirgan kishi rasvo bo`lur, Yo`ldan ozib, toyib, to`zib gumroh bo`lur. Yotsa, qo`psa shayton bilan hamroh bo`lur, Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. B. To`xliyev, B. Karimov. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent. 1991-yil.



ADABIYOTDA TARIXIYLIK VA RELIZM

**Abdullayeva Xolida Hamroyevna**  
Zarafshon shahri 3-KBTCHO‘IDUM  
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi  
e-mail:xolidahamroyevna@mail.ru

**Annotatsiya:** maqolada adabiyot tarixining predmeti, tarixiy va memuar asarlar, ayrim adabiy faktlar, muayyan ijodkor hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar, tarixiylik prinsipi va shu kabi masalalar yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** adabiyot, adabiyotshunoslik, tarixiy timsollar, ijodkor shaxslar

Adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. Adabiyot tarixining predmeti-o‘tmish adabiyoti bo‘lib, uni jarayon yoki shu jarayonning bir bo‘lagi sifatida tadqiq etadi. Adabiyot tarixining asosida tarixiylik prinsipi yotadi. Tarixiylik prinsipini adabiy jarayonni konkret ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog‘liq hodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Ya’ni adabiyot tarixi o‘tmishdagi adabiy hodisalarni yaratilgan asarlarning g‘oyaviy-mazmuniy xususiyatlarini belgilagan badiiy tafakkur rivoji, poetik usul va vositalarning o‘zgarishi va shakllarga asos bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy omillarni ochib beradi. Adabiyot tarixi nuqtai nazaridan konkret badiiy asar tahlil qilinganida ham, o‘sha asar yaratilgan davr sharoiti, davr adabiy jarayonni xususiyatlarini nazarda tutish shart qilinadi. Adabiyot tarixini qiziqtiradigan masalalardan yana biri, konkret ijodkor faoliyatini o‘rganishdir. Ijodkor faoliyatini o‘rganganda uning ijodiy o‘sish jarayonini kuzatganda ham asosga qo‘yilgan prinsip tarixiylik bo‘lishi lozim. Adabiyot tarixi o‘tmish adabiyoti xususiyatlarini ochib berarkan, birinchidan o‘tmish adabiyoti tajribalarini bugungi adabiyot xizmatiga safarbar etadi, ikkinchidan, keng ko‘lamli nazariy xulosalar chiqarish uchun zarur, material hozirlaydi. Shunga ko‘ra, adabiyot tarixi badiiy tafakkur taraqqiyotida ham, adabiy-nazariy tafakkur rivojida ham katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida adabiyot tarixi sohasining dastlabki kurtaklari sifatida tazkiralarni ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, qator tarixiy va memuar asarlarda ayrim adabiy faktlar, muayyan ijodkor hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar ham qayd etilgan. Biroq adabiyotini tarixiy aspektida ko‘lamli o‘rganish ya’ni o‘zbek adabiyotshunosligida adabiyot tarixining mustaqil tarmoq siqatida shakllanishi va rivoji XX asrga to‘g‘ri keladi. O‘zbek adabiyot tarixini o‘rganish borasidagi izlanishlar hozirgi kunda ham davom ettirilayotir. Mavjud ijtimoiy voqealik o‘tmish merosimizga munosabatini o‘zgartirishni, qator adabiy hodisalar, faktlar ijodkor shaxslar taqdiri va faoliyatini yangicha, ilmiy xolis talqin qilish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ydiki, bu adabiyot tarixi zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi.

Realizm lotincha realis – mavjud, haqiqiy adabiyotshunoslikda realizm termini keng va tor ma’nodlarda qo‘llaniladi. Keng ma’noda realizm terminining ma’nosi badiiy asar unda tasvirlangan badiiy voqelik bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi. Ya’ni bu holda realistik umumestetik tushuncha bo‘lib, hayotni haqiqatga reallikka muvofiq tasvirlashni hat haqiqatini bildiradi. Har qanday badiiy asarda voqelik u yoki bu tarzda aks ettirish esa qadimdan mavjudligi e’tiborga olinsa, bu ma’nodagi Reallikning ildizlari juda qadim zamonlarga taqalishi tabiiydir. Shu bois ham adabiyotshunoslikda realizm yoki mifologik realizm, uyg‘onish davri realizmni ma’rifatchilik realizm kabi atmalar ishlatiladi, tabiiyki bu ma’nodagi realizm klassizm, sintimentalizm kabi yo‘nalishga ham xosdir. Bu ma’noda realizm termini hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari, badiiy tafakkur tipini anglatadi.

Tor ma’noda realizm hayotni haqiqatga mavjud narsa-hodisalar mohiyatiga muvofiq tarzda voqealikda mavjud faktlarni tipiklashtirish asosida yaratilgan badiiy obrazlar orqali aks ettirishga asosalnuvchi ijodiy metod va ongli ravishda shu metodga tayangan adabiy yo‘nalishni bildiradi. Ushbu metod yo‘nalishning maydonga chiqishi XIX asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Realizm metodida adabiyotning bilish funksiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi, realistik ijodkorlar adabiyotni odam va odamni jumladan o‘zini idrok etishning muhim samarali vositasi deb biladilar. Shunga ko‘ra, realizm hayotni butun murakkabligi bilan keng ko‘lamda aks ettirishga intiladi. Bilish maqsadining ustuvorligi bois realizm insonni ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada tasvirlaydi, ijtimoiy-tarixiy sharoitning inson taqdiri va fe’l-atvoriga ta’sirini turon badiiy tadqiq etadi. Zero, realist san’atkorlar inson taqdirini, uning amallari, orzu-intilishlari ijtimoiy asosga



ega deb biladi, bularning barini ijtimoiy-psixologik jihatdan asoslashga intiladi. Ayni chog‘da etik realizm adabiyotda inson ijtimoiy sharoitga bog‘labgina qolmaydi, inson o‘z iroda kuchi bilan undan yuqori ko‘rila oladigan, unga qarshi tura biladigan kuch sifatida ham ko‘rsatiladi. Xuddi shu jihati bilan realizm naturalizmga farqlanadi, hayotni unga qaraganda teranroq va haqqoniyroq aks ettira oladi. Insonni murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida tasvirlarkan, realizm hayotni keng ko‘lamda tasvirlashga etishadi, jamiyatni joriy holati, undagi taraqqiyot yoki tanazzul tendensiyalarini badiiy idrok etadi, u haqida o‘zining badiiy hukumini ifodalab, adabiyotning konseptual funksiyasini amalga oshiradi. Ayni chog‘da realizmni hayotdan oddiygina nusxa ko‘chirish deb tushunilmas kerak. Zero ijtimoiy metod sifatida realizm ham voqealikni ijodiy aks ettiradi, ijodiy qayta yaratadi. Realizm hayotdagi ijodiy qayta yaratish tipiklashtirish ya’ni voqealikning muayyan davr va muhit uchun eng xarakterli jihatlarini umumlashtirish orqali amalga oshadi. Biroq bu hol ijodiylikka zid deb tushunmasligi kerak, zero realizmdagi tipiklashtirish badiiy to‘qimani aslo inkor qilmaydi, faqat uning ham voqealik mohiyatiga muvofiq bo‘lishini taqozo etadi. Shu bilan birga realizm taraqqiyoti davomida, xususan, XX asr realizmida badiiy shartlilikning turli ko‘rinishlari ham keng qo‘llanila boshladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T: akademnashr, 2010.
2. Karimov X. Tarixiy shaxs va badiiy obraz – T: Yangi andijon avlodi, 2006 y.
3. Umarzoqova. Poetik timsol yaratish mahorati // Til va adabiyot ta’limi jurnali , 2002, 1- soni 20-24 betlar.



**О'QUVCHILARDA NUTQ MADANIYATINI O'STIRSHDA ONA TILI ADABIYOT  
DARSLARIDA QO'LLANILASHDA ENG SAMARALI VA MUHIM METODIK  
TAVSIYALAR**

**Yo'ldosheva Sohiba Kuchkorovna**  
Namangan viloyati Norin tumani  
40-sonli maktabning ona tili  
adabiyot fan o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu metodik tavsiya faqat ona tili adabiyot fanlari o'qituvchilarigagina emas balki, o'zini farzand tarbiyasida muhim inson ekanligini anglagan barchaga tavsiya etilgan. Chunki tezisda yozilgan ma'lumotlar ishonarli manbalar bilan birgalikda o'z hayot yo'limda ortirgan keng ko'lamli tajriba va bilimlarim bilan boyitilgan.

**Kalit so'zlar:** Erkin Vohidov Nizomiddin Mahmudovning “Til”, “Ma'rifat manzaralari” nomli, Nusratulla Jumaxo'janing “Istoqlol va ona tilimiz”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asari, Kaykovusning “Qobusnoma” Jaloliddin Rumi, Demosfen va Rim notiqolari Seseron, Kvintilian, Arestotel “nutq odobi”, “muomala madaniyati” haqida Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So'fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy,

Nutq madaniyati to'g'risida so'zlashdan oldin nutq o'zi nima, uning tildan farqi bormi degan savolga javob topishimiz kerak. Har qanday sohaning madaniyati bo'lgani singari nutqning ham o'z madaniyati bor.

Til va nutq bir-biriga bog'liq xodisalardir, ularning bir-biridan ajratib qarash asossizdir. Til nutq uchun moddiy materialdir. Shu asosida nutq tashkil topadi. Nutq madaniyati adabiy meyorini ma'lum maqsad bilan, aniqrog'i madaniy nutqning chegarasi va vositasi sifatida o'rganadi. Shu sababli, nutq madaniyati sohasi adabiy til va uning me'yoriy tizimini baholaydi va nazorat qiladi. Nutq madaniyati sohasida adabiy tilga faol yondoshadi, aralashadi.

Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyatida yuzaga keladigan, faqat jamiyatda odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham rivojlanib boradi. Demak, shu tilda so'zlovchi millatning madaniyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so'nishiga, ma'naviyatning qashshoqlashishiga olib keladi.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi hisoblanadi. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol – yagona shu jamiyatning tili hisoblanadi.

Inson nutqiy faoliyatga adabiy til qoidalarini mukammal bilgan holda inson nutq madaniyatiga ega bo'ladi. Bugungi o'quvchi yoshlar o'rtasida nutq madaniyatini, chiroyli so'zlash odobini qanday usullarda singdirish qulayliklari va faoliyatim davomida qo'llagan eng samarali metodlar, malakalarni tavsiya etmoqchiman.

Bir do'stki, hech kimga bermagan azob,  
Uzoq sinab ko'rdim, bilsang u kitob.  
Sirni yashirmaydi o'quvchisidan,  
Xabar berar senga yozuvchisidan.  
Xilvatda sen bilan bo'lib ulfat,  
Jimgina quradi yoqimli suhbat  
Hech kimdan qolishmas bilimli ahhob,  
Undan so'ramasang bermaydi javob.

O'quvchilarni nutqidagi kamchiliklar va ularni so'zlash odob madaniyatini yuksaltirishga e'tibor qaratgan samarali faoliyatimdagi ijobiy metodlarimdan biri darslarimni ana shunday kitob matolaasiga oid go'zal she'rlar bilan boshlashdir. Bu orqali o'quvchi xoxlasa, xoxlamasada adabiyot darsida ekanligini bir daqiqa ichida xis qilib tarqoq hayollarini yig'ishga harakat qiladi. Kimki kitobga ko'p boqsa, kitob uni zehni ochadi, zavqini oshiradi, so'zga chechan qiladi. Kitob ham o'tmishdan, ham kelajakdan xabar beruvchidir. Kitob insondan xech narsa tilamasdan uni kamolotga etkazadi. Kitob ahloq odobning koni, bilimning esa bulog'idir. Kitob shunday hamdamki, so'zlarida yo'lg'on, xato bo'lmaydi, suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U shunday rafiqdiki, kishining orqasidan g'iybat qilmaydi, do'stini xafa qilmaydi, uning suhbatidan behisob foydalarga ega bo'lasan kishi.



O'quvchilarimga dastlabki muallimlik faoliyatimni boshlagan kezlarimda darsdagi daftarlariga qo'shimcha ma'lumotlar uchun yon daftar tutishlarini aytardim. Bugungi kun o'quvchilarim esa, o'z-o'zida ana shunday daftarlardan foydalanishyotganini ko'rib, yana bir maqsadimga erishganimdan mamnun bo'laman. Chunki, o'qigan asarlar kitoblar, ma'lumotlar inson – “unutuvchi” lug'aviy ma'nosiga ega bo'lgan Allohning hilqatiga azaliy odat deya, ilm bobidagi har qanday ma'lumotlarni imkon qadar yozishga, bunga uzim ham, o'quvchilarni ham yozishga undar edim. Yozilgan narsalar abadiy qolishi haqida ma'lumotlar berar edim. Nutqimizni go'zal qiluvchi eng asosiy sabab ham Alloh taolo tomonidan ilk yaratilgan qalam bilan inson hayoti haqida buyuk insonlar shunday so'zlar keltirishgan: chiroyli xat kambag'al kishilar uchun mol, badavlat kishilar uchun husni – jamol, olim kishilar uchun kamol hisoblanadi.

Zamonamizning zabardast xalq shoiri Erkin Vohidov ham qurollarning foydalirog'i qalam haqida shunday yozib qoldirgan:

Sen dastavval oybolta bo'lding,  
So'ng zambarak bo'lib quyilding.  
Qilich ham sen, miltiq va nagan,  
Hatto bomba bo'lib portlagan.  
Lekin oldi jahonni faqat,  
Pero bo'lib quyilgach po'lat.

Darhaqiqat, shoir so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olgan. O'tmishda ham, kelajakda ham kim ko'p kitob o'qisa, uni tafakkuri eng keng, nutq madaniyati yuqori, uni suhbatlari ma'noli ekanligidan boshqalar unga talpinib, suhbatlariga doim mahtal bo'lishadi.

Jahon adabiyotida studentlik chog'larimda bir romanni ichida shunday so'zlar yozilgan edi. “Farzandini yoshligidan puldan ko'ra kitobga qiziqishini xoxlagan ota-ona bolani atrofiga pullar qo'yib qo'yishadi va ishdan charchab kelsalarda qo'llariga kitob olib mutolaa qilishlarini o'rnak qilib ko'rsatishar edi. Ota qattiq charchagan kunlari ham o'qimasada o'qigandek kitobga nigohini qaratib, o'tirardi. Natijada bola to'qqiz yoshida yadroviy fizikaga judayam qiziqib, yangi izlanishlari va teran fikrlarini tinglagan davlat amaldorlari bolani yaxshi sharoitlarda ulg'ayeshi, ilm olishi uchun to'lovlar amalga oshira boshlaydilar. Natijada bola ota-onasi orzusidanda ilmli, jamiyat, dunyo uchun muhim shaxslardan bo'lib yetishadi”. Bu asarni o'qiganimga yillar o'tib ketgan, asardagi qahramonlarning ismlari ko'pchiligi yodimdan ko'tarilgan bo'lsada, hayotimga tadbiiq qilishga harakat qildim. Oilali, farzandli bo'lganimda farzandlarim oldida doim asardagi ota-ona kabi rol ijro etishga harakat qildim. Aslida buni rol deb ham bo'lmas edi, chunki pedagog bo'lganim sababli har tun allamahalgacha kitoblar mutolaa qilishga, farzandlarimga esa kitoblarim dastlab o'zlari uchun uylar yasash uchun uyinchoq vazifasidan o'z faoliyatini boshlagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan men kabi ularning ham ilm olish sevimli mashg'ulotlariga aylandi. Hozirda dasturxon atrofida o'tirganimizda kimningdir hayotini muhokamasi bilan emas, balki qaysidir mutolaa mahsulimizning kechinmalari, olgan saboqlarimiz haqida oilam bilan fikr almashib qilgan suhbatlarimiz qalbimga huzur bag'ishlaydi. Bir so'z bilan aytganda haqiqiy baxtni xis qilgandekman. Bu keltirgan iqtiboslarim metodik tavsiyamning ota-onalrga ajratilgan qismi.

Nutq madaniyati inson tafakkurining mahsuli bo'lib, jamiyat madaniy taraqqiyoti va millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Barcha sohalar kabi o'zbek tilimiz va u bilan bog'liq muommolar ham muataqillik erishganimizdan keyin, o'z yechimini topmoqda. Xususan, nutq madaniyatiga doir masalalarni hal qilishda tilshunos olimlarimizning mehnatlari, izlanishlari tahsinga loyiqdir. Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning “Til”, “Ma'rifat manzaralari” nomli, Nusratulla Jumaxo'janing “Istoqlol va ona tilimiz” kabi risolalari ana shu sohadagi izlanishlarining yorqin misolidir.

O'zbek xalqining uzoq o'tmishdan nutq madaniyati xususida boy merosga ega bo'lganligi, Sharq mutafakkirlarining ta'lim – tarbiyaga doir asarlari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asari XII asrdagi ajoyib yodgorlik bo'lsa, Kaykovusning “Qobusnoma” asari ham bu fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi.

Bugungi kunda nutq madaniyati kursi o'rta maktablardan o'qitilish boshlanib, barcha o'quv maskanlarida, pedagogikadan tortib texnologiya yoki qurilish oliygohlarida ham bu kurslarni o'qitilishi nutq madaniyatiga alohida e'tibor berilayotganidan dalolatdir.

So'zlovchining ya'ni, notiqning tinglovchi bilan fikran to'qnashuvlarida, so'z – tafakkur xazinasining ko'zgusi bo'lib, notiq uchun faqat fikrni ifodalash vositasigina bo'lilib qolmay, balki mavzuni faol ifodalaydigan asosiy omil hamdir.



Bitta soʻz olamni vayron qiladi,  
Bitta soʻz qoʻrqoqni polvon qiladi.

Jaloliddin Rumi

Oʻylamay gapirilgan qaysidir gaplar insonni baxt-saodatga erishish ostonasida turgan paytda oyogʻiga tushov boʻlishi mumkin boʻlgan holatlarni juda koʻp uchratishimiz mumkin. Har doim suhbatdoshimizga mos unga suhbatdosh boʻla oladigan soʻzlarni topa olish, oʻylashdan koʻra koʻproq kitob, asarlar oʻqishga bogʻliq holda notiqlik sanʼatini egalashiga imkoniyatlar eshigini ochish mumkin. Aksincha ilmsizlik esa, nomunosib soʻzlarni gapirib qoʻyishga, foydasiz pushaymonlikka sabab boʻlishani hayotimizda uchraydigan holatdir. Zero, zabon berilgan har bir insonning vazifasi hutqning xilma-xil uslub va boy shakllarini topish ekanligini oʻquchilarda shakllantirish asosiy maqsadimizdir. Shu oʻrinda quyidagi misralarni keltirish oʻrinlidir:

Soʻzni koʻngilda pishirmaguncha tilga keltirma,  
Va har nekim koʻngulga kelsa, tilga surma.....

Yusuf Xos Hojib

Avval oʻyla, keyin soʻyla.

Maqol

Soʻz – qurol, maqsad esa koʻngil, koʻngil oʻrtanmasa, ehtirolarga toʻlmasa, soʻzda taʻsir boʻlmaydi

J. Rumi

Nutq madaniyati haqidagi taʼlimot qadimgi Rim va Afinada shakllangan boʻlsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo boʻlgan notiqlik sanʼati tajribasidan va tarixidan maʼlum. Chunki u paytlar davlat arboblarning obroʻ-eʼtibori va yuqori lavozimlarga koʻtarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bogʻliq boʻlgan. Notiqlik sanʼati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulugʻlangan. Umuman yetuk inson boʻlish uchun notiqlik sanʼatini egallash lozim boʻlgan. Grek notigʻi Demosfen va Rim notiq-lari Seseron, Kvintilian, Arestotel kabi nazariyotchilarning hayoti bunga yaqqol misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik sanʼatining oʻziga xos maktablarini yaratdilar. Seseronning “Notiqlik haqida”, “Notiq”, “Brut” asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning “Notiq bilimi haqida”, Arestotelning “Ritorika” kabi asarlar qadimgi Rimda madaniy nutq, notiqlik sanʼatining rivojlanganini koʻrsatuvchi omildir.

Oʻrta Osiyoda nutq madaniyatining rivojida Qurʼonni targʻib qilish bilan mushtarak holda soʻzning ahamiyati, maʼnosi va undan oʻrinli foydalanish borasida koʻp fikrlar keltirilgan. Shu nuqtai nazardan qaralsa “nutq odobi”, “muomala madaniyati” haqida Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshgʻariy, Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Soʻfi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulugʻ siymolar nutq odobi masalalariga, umuman nutqqa jiddiy eʼtibor berish bilan birga tilga lugʻatga, grammatikaga va mantiqqa oid asarlar yozdilar. Masalan, Uygʻun va Izzat Sulton dramasida shunday satrlar bor:

Yomon til, yaxshi til yoʻq, barcha til bir,

Ulugʻlar oldida bu gap emas sir.

Jahonga shoh asarlar taqdim etgan

Butun dunyoga shuhrat, dongʻi ketgan

Faqat forslar emas, hindlar, arablar,

Xitoy, yunon, boʻlakalar ham.

Bu gaplar ayondir kun kabi,

Biz soʻzlagan til,

Shu tillar kabi boy va qobildir,

Adolat koʻkida mavj aylagan nur.

Yoritmish gʻam bilan toʻlgan dilingni,

Haqiqat madhiga burmish tilingni.

Unutma hech qachon oftob misoli,

Adolat barchada afzal va oliy.

Yusuf Xos Hojibning ham asarlarida koʻp soʻzlamalik, oz soʻzlab tinglovchiga aniq, goʻzal qilib yetkazib berish haqidagi, nutq madaniyatiga erishishning asosiy hikmati ekanligi aytib oʻtilgan.

Biz atrofimizdagi kimlargadir farosatli, es-hushli, madaniyatli odam deb taʼriflab, baho beramiz. Bunga odob doirasidagi muomala madaniyatini oʻzlashtirishlari sababli erishganlar. Shuning uchun ham men ham oʻquvchilarimga “Oʻqib, aqlingni tuzat, oʻrganib soʻzingni tuzat” degan nasihatlarimni darslarimda singdirib borishga harakat qilaman.

Insonga keladigan oʻn foydaning toʻqqiztasi tildan. Til bamisoli argʻumoq. Kuching yetib



asovdan zo'r bo'lsang, arg'umoq aytganinga ko'nadi, yetmasa o'zingni mayib qiladi.

Darslarim davomida yana o'quvchilarim uchun nutqni o'stirish uchun tez-tez bellashuvlar o'tkazib turaman. Bir badiiy asarni o'qishni tavsiya etamanda, keyingi darsda o'sha asar haqida yozuvchining yetkazib berish mahorati va so'zlarni o'z o'rnida ishlata bilganligi haqida baxsni baholamaoqchi bo'lgan o'quvchimga agarda yozuvchi o'rnida bo'lganingizda asarga yana qanday o'zgartirishlar kirita olardingiz, yoki qaysi obrazga qanday harakterlar bilan siylardingiz kabi aqliy hujumlarni deyarli ko'p darslarimda tashkil qilaman. Dastlab bu topshiriqlarimda sinfning uchdan bir qismi qatnashgan bo'lishsa, endi ular o'zlariga jamoa bo'lib ishlashni taklif qilib barchalari asarni internetda bo'lsada topib o'qishga harakat qilishadi. Bahs- munozaralar esa ularni aqlini, bilimini keskir qilib, nutq madaniyatlarini yanada o'sishidagi natijalarni ko'raman. Avvallari internetga o'yin qandaydir bekorchi videolar ko'rishga oshiqadigan o'quvchilarim endi oylik to'lovlariga qaysi kitoblarni olib o'qishlari mumkinligi haqidagi gaplarini eshitganimda, ularda texnika yutug'laridan to'g'ri yo'lda foydalanishlariga hissam tegayotganidan minnatdor bo'laman. Yana o'quvchilarim bugungi kunda qo'shimcha til o'rganishga, sertifikatlarga ega bo'lib oliygohga qo'shimcha ball yig'ib poydevor qurishga harakat qilishadi. Va albatta chet tillari imtihonlarida matn tuzish, insho yozish bosqichlarida qanchalik, oddiy muommaladagi so'zlardan ko'ra, ma'nodor so'zlarni ishlatish ko'proq ball yig'ish imkoniyati ekanligini, bu so'zlarni birinchi navbatda o'zbek tilidagilarini bilishlari kerakligini bilib ham yanada ko'proq kitob o'qishga, tushunmagan so'zlari uchun lugatlar tutib o'z ustilarida ishlashlariga erishdim. Va bularni faoliyatilaringizda qo'llashni sizlarga ham tavsiya etyapman. Yana o'quvchilarga so'zga chechanlik haqida quyidagi maqollar, ibratli so'zlar bo'yicha ham tez-tez jamoaviy bahru-baytlar tashkil qilib turaman va sizlarga ham nutqni o'stirishda foydalanishlaring uchun tavsiya etaman. Masalan,

Qo'l yugurar oshga, til yugurar boshga.  
Ortiq tuz oshga zarar, ortiq so'z boshga.  
Odam tilidan, mol shohidan ilinadi.  
Anglamay so'zlagan, og'rimay o'ladi.  
Yomg'irning ko'pligi yerni quritadi,  
So'zning ko'pligi erni.  
Gapni gapir uqqanga.  
Tinglovchisi bo'lmasa, so'z yetim.  
Suvni singadigan yerga quyib,  
So'zni uqqan odamga aytgan yaxshi.  
So'zni o'ylamasdan so'zlash boshga balo kektiradi.  
Aytilgan soz, otilga o'q.  
Og'izdan chiqqan so'zga ot bilan ham quvib yetolmaysan.  
O'ttiz tishdan chiqqan so'z, o'ttiz mahallaga tarqaladi.  
So'zlaguncha so'zingga o'zing xo'jayin,  
So'zlagach o'zinga so'zing xo'jayin.  
So'zlay bilsang qisqa-qisqa,  
Dalili bilan so'zlagan ma'qul.  
So'zing ishonarli bo'lmasa,  
Xalqdan, yani tinglovchidan o'pkalama.  
Otalar so'zi – aqlning ko'zi.  
Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi.  
Ish bilanga bir tanga, gap bilganga ming tanga.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, chiroyli nutq egasi bo'lish uchun eng avvalo badiiy adabiyotdan ko'proq bilim olishga harakat qilish darkor. Birgina ko'p kitoblar mutoala qilish bilan nutq madaniyatiga, foydali bilimga, hunarga, baxtga, saodatga, farovonlikka, ilmsizlik natijasida keladigan muommolarga oson yechim topishga, barchani mehriga, o'zingiz xoxlagan barcha yaxshiliklarga erishishga kafolatdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Ahmedov A. Til boyligi. Toshkent, 1968.
2. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. Toshkent, 1999.
3. Mahmudov N. “O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari” 1998.
4. Internt saytlari  
4. ziyonet.uz



## NUTQNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARIDAN BIRI PSIXOLINGVISTIKA VA BU NUTQNING SHAKLLANTIRISH OBYEKTIDA AYOLLARNING O'RNI

**Kamolova Dilnozaxon Rashidovna**

Namangan viloyati Norin tumani  
40-sonli maktabning ona tili  
adabiyot fani oliy toifali o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu mavzu o'rganilishi jihatdan mamlakatimizga kirib kelganiga ancha vaqt bo'lgan bo'lsada, chuqur o'rganish sifatida asosiy ilmiy ishlar hozirda takomillashib va mukammallashtirib borilayotganligi, adabiy nutqda muhim o'rni haqida manbalar asosida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu tavsiyalarda pedagoglar foydalanishlari uchun muhim hayotiy omillar bilan boyitilgan.

**Kalit so'zlar:** Abdurahmonov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, M.Sodiqova, Yo. Tojiyev, B.O'rinboyev, M.Asomiddinova, T.Qudratov, S.Karimov, T.Qurbonov, A.Boboyeva, B.Umirqulov, A.Ahmedov, Q.Samadov, S.Inomxo'jayev G.Shteyhtal, Potebnya, Paul, Boduende Kurtene, Sossyur, Sepira va Sherbalar,

Nutqning ta'siri quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay “yuqumli” tarzda yetkazish imkoniyati muhim so'zlashuvda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy til me'yorlari, nutqning sifatlari, nutq madaniyati masalalari o'zbek, rus umuman, dunyo tilshunosligida ham amaliy, ham nazariy jihatdan yetmish-sakson yildan beri faol o'rganib kelinadi. O'zbek tilshunosligida Abdurahmonov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, M.Sodiqova, Yo. Tojiyev, B.O'rinboyev, M.Asomiddinova, T.Qudratov, S.Karimov, T.Qurbonov, A.Boboyeva, B.Umirqulov, A.Ahmedov, Q.Samadov, S.Inomxo'jayev va boshqa ko'plab olimlar nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishga o'z xissalarini qo'shganlar. Ular yaratgan asarlarda o'zbek nutqi madaniyatining nazariy masalalari bilan bir qatorda bevosita amaliyot bilan daxldor, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Har qanday narsaga baho berilganda, avvalo, uning asilligi, boshqa keraksiz unsurlardan xoliligi, o'z mohiyatiga muvofiq toza tarkibga egaligi kabi me'yorlardankelib chiqiladi. Soflik sifati nutqning ana shunday baholash mezonlaridan hisoblanadi. Boy nutq tinglovchining joniga tegmaydi, balki u bunday nutqni jon qulog'i bilan tinglaydi.

Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so'zlar, ma'nolar, intonasiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar...) dan qay darajada foydalangaligi bilan belgilaydi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha, muayyan til unsurining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al hisoblanadi va unig ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi. Ulug' Alisher Navoiy aytganidek, “Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror o'ldi, dilkash emas”. Shuning uchun ham nutqning bu sifati rang – baranglik tarzida ham talqin etiladi. O'zbek tili har jihatdan, lug'at xazinasini nuqtai nazaridan benihoya boy va rivojlangan tildir. Shuning uchun ham bu qadim tilda “oldidan o'tganda bugungi kun adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadig'an” (Fitrat) adabiyoti yaratilgan.

Agar nutq o'zida barcha kommunikativ sifatlarini mujassam etsada, yetkazib beruvchida mahorat bo'lmasa bunda ham so'zlivchi maqsadiga erishishi samarasiz bo'lib, so'z qadrini yoqotadi. Insonlarda nutq chiroyli, so'zlar betakror va ifodalayotgan paytda uning suhbat yuzida emotsiyalar bilan ifodalanishi tinglovchining qiziqishini yanada ortiradi. Zamonamizning so'z ustalariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda bu tizim yani, nutq bilan birga yuz, tana emotsiyalarini ishtirokidan foydalanib faoliyat olib borishadi. Emotsiya o'zi nima? Emotsiya- shaxsning voqelikka o'z munosabatini xis qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli va yoqimsiz kechinmalaridir. Emotsiyani ta'sirchanligini esa hissiyot keltirib chiqaradi. Hissiyot – bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi.

Hissiyot va tuyg'ular o'rtasida xislar emotsional kechinmalarining ifodalanishlardan biridir. Biz bu maqolada bugun hissiyot va kechinmalarni ifodalovchi nutq imkoniyatlari haqida yondoshmoqchimiz. Bugungi texnika rivojlanib borayotgan davrda yashar ekanmiz, barcha sohalarda yangiliklarga duch kelamiz. Bu rivojlanishda, nutqning yangi yunalishlarini o'rganuvchi



bo'limlarining o'zbek tilida ham o'rganilayotgani yangi fanlarga asos solmoqda. Ana shunday nutqning zamonaviy yo'nalishlaridan biri psixolingvistika-psixologiya va lingvistika qo'shilishidan shakllanadigan fan.

Psixolingvistika nutqning hosil bo'lishi, shuningdek nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanish holatida o'rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo'lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiriladi. Tadqiqot manbayi bo'yicha tilshunoslikka yaqin bo'lgan psixolingvistika o'z tekshirish usullari bo'yicha psixologiyaga yaqin turadi. Unda o'zaro bog'lanishli eksperiment, “samantik differensial” kabi va boshqa eksperimental usullar qo'llaniladi. Psixolingvistika termini XX asrning 60-yillarida amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritilgan. O'zbekistonda ushbu soha boyicha bir qancha ishlar amalga bajarilgan bo'lsada, haqiqiy ma'nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.

Psixolingvistika asoschisi nemis tilshunos olimi G. Shteyhtal (1823-1899) hisoblanadi. Uning eng muhim asarlari sifatida “Tillarni tasnif etish va ularning taraqqiyot qonuniyatlarining maqsadi” deb nomlangan bo'lib, 1850-yilda yozilgan. Undan keyin 1851-yilda “Tillarning kelib chiqishi”, 1855-yilda yozilgan “Grammatika, lingvistika va psixologiya”, 1860-yillarda yozilgan “Muhim tipdagi tillarning tuzilishi xarakteriskasi” asarlarini sanab o'tish lozim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, lingvistik biologizmning o'ziga xos xususiyatlari Shleyxer ta'limotida o'z ifodasini topgan bo'lsa, logikgrammatizm Bekker ta'limotida jonlantiriladi.

Shteyn ta'limiy qarashlariga Potebnya va Paul, Boduende Kurtene ham Sossyur, Sepira va Sherbalar e'tibor qaratdi. Biroq psixolingvistika birgina xalq misolida rivoj topgan emas. Psixologik maktab XIX asrning birinchi yarmi XX asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, til va nutq muommosiga oid amaliy ishlar amalga oshirila boshlandi. Zamonaviy tilshunoslik tobora kengayib, taraqqiy etib bormoqda. Buning asosini shubhasiz, tilshunoslik va boshqa fanlar o'rtasidagi aloqadorlik ta'minlaydi. Psixolingvistika ham mana shunday jarayonning mahsulidir. Psixolingvistikaning asosiy tadbiiq obyektii nutqiy faoliyst subyeti bo'lgan shaxs, til sohibi hisoblanadi. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shgan.

A.A. Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasi haqida yozar ekan, “tilning amal qilishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish” ushbu sohaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Psixolingvistika nutqda bevosita psixologiya bilan aloqador fan bo'lgani, inson psixologiyasida ayol jinsi vakillarining o'bekt sifatida muhim rol o'ynashini kuzatamiz. Chunki ayol farzandni dunyoga keltirish bilan juda ko'p rivojlanish bosqichlari aynan ayol kishiga bog'liq hisoblanadi.

Ayollar psixolingvistikasini o'rganar ekanmiz, bu hilqat ichida dunyocha mo'jiza va sirlarga duch kelamiz. Bunga yaqqol misol tariqasida o'zbek ayollarini psixolingvistikasiga e'tibor qaratmoqchimiz. Dunyo xalqlarini etnografiyasiga, urf – odatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak sharq ayollari g'arb ayollariga nisbatan so'zlarida ham, harakatlarida ham mehr- murruvatni his qilib turasiz. Bu bag'rikenglik azaldan merosdir. O'zbek ayollari farzand tarbiyasida so'zlarga e'tibor bersak, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish g'oyalari keng shakllantiriladi. Ayniqsa, qizlarning so'zlash odobidagi kamchiliklarni bartaraf etishga alohida e'tibor beriladi. Chunki, o'zbek qizlarining boshqa xonadonga kelin bo'lib borganda uning gap-so'zlariga alohida e'tibor qaratilib, o'z ota-onasinikida sizlab gapirmagan singlisi, ukasini turmushga chiqqan joyidagi turmush o'rtogii barcha oila vakillarini har qanday holatda ham sizlab, muloyim bo'lish shu oilada tezroq ildiz otishiga imkon yaratuvchi omillardan biridir. Ayollar erkaklarga nisbatan, hissiyotga beriluvchi bo'lishini psixologiyani o'rganganimizda amin bo'lamiz. Erkak aqliga suyanib so'zlasa, ayol hissiyotlarini tiliga chiqaradi. Bu borada qizini uzatayotgan onaning nasihatlariga e'tibor beramiz, “Qizim qaynonang so'zlayotganda gaplariga quloq sol, senga yoqmaydigan gaplar bo'lsa ham aslo javob berishga shoshilma, chunki u ona, sening turmush o'rtogingni voyaga yetkazgan, ularnikidagi turmush tarzi biznikidan tamomila farq qilishi aniq, chunki Alloh ikkita bir hil inson yaratmaganidek, aslo lolishtirma, shunday bo'lishi kerak edi deya qabul qilsang juda yaxshi, biror savol berganlarida yoki xizmatga chorlaganlarida labbay deb javob bersang, senga ham chiroyli so'zlar bilan siylashlariga ishonaman...”. Ayollardagi bunday holatlari psixolingvistikaga qanday bog'lashimiz mumkin. Bugungi kunda ayollarni ta'lim olishiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Avvallari o'qigan qiz o'zini uddalaydi, oilasiga moddiy ta'minotiga ko'maklashadi deb e'tibor berilgan bo'lsa, inson ongini rivojlanishi bilimli, ko'p ilm olishga harakat qilgan qizlar komil inson tarbiyasiga, barkamol avlodlar ulg'aytirishiga munosib xissa qo'sha olishiga imkon deya qaralmoqda. Chunki, bilimli, ilmi ayollardan faqatgina psixolingvistikaning yoqimli



ko'rinishlarini, atrofidagi barcha insonlar qalban, aqlan, xushkayfiyat ehergiyalarini xis qilib yashashlari mumkinligini ko'ramiz. Ayollar psixolingvistikasini o'rganish uchun kuzatuvlar olib borgan paytlarimda shunga amin bo'ldim, qalbiga yoqmasada, siz bilan majburlikdan muloqot qilish, soxta tabassum yoki chiroyli so'zlar ham ularni xissiyotlarini to'liq yashirib bera olmas ekan. Buni xis qilgan qalbingiz chiroyli tabassum yoki chiroyli soxta so'zlardan uzoqlashgisi kelar ekan. Aksincha, Ona farzandiga noma'qul ish qilgan paytlarida dakki berib tanbeh berganida, onaga yana yaqinlashgiz keladi. Bunga sabab nima deb o'ylaysiz? , albatta ona o'z farzandini qalbida sevgini o'chirib turib so'zlamasligidandir. Psixolingvistikani o'rganish bilan ayollardagi bir qancha holatlardagi ehtimoli ko'p bo'lgan so'zlarni ifoda etadigan xissiyotlar ko'rinishlari quyidagilarda ifoda topadi:

- Sizni gaplarizni lablarini tez-tez tishlab eshtayotgan bo'lsa, bu ishonchsizlik belgisi;
- Atrofni kuzatib eshitish, sizga e'tiborsizlik, kasb joylarda bo'lsa kamchilik qidirish;
- Salom alikdan so'ng o'zini ishlari haqida so'zlashlik, shoshilayotganligidan darak beradi ;
- Qoshlarini ko'tarish jahl, nafrat;
- Qoshlarni o'rtaga yig'ib eshitish, achinish, dardkashlik;
- Qo'llaringizni ushlab gapirish, sizga judayam yaqinlik, do'stlik;
- Qo'llarini iyagiga qo'yib, ko'zlarizga qarash muommolarizga yechimida yordam berish;
- Ushbu xissiyotlar so'z bilan nutqda to'liq ifodalanmasligi mumkin, lekin shunday ko'rinishlardan anglashiz mumkin. Buning uchun albatta kuzatuvchanligingiz va bilimingiz sizga to'g'ri yo'l ko'rsata oladi.

- Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, psixolingvistikani o'rganish nutqimizga endigina o'rganish nazariyalari amalga oshirilayotgan bo'lsada, hayotning yozilmagan qonuniyatlaridan uni sifatlarini ko'plarini anglab ymag'zini chaqa olganmiz desak mobilag'a bo'lmaydi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Filichyeva T.B. Logopediya
2. Nosirov Po'lat. O'zbek nutq madaniyati. Toshkent. 2004
3. Muydinov K.A., Vahobova K.U. Nutq madaniyati ma'ruzalar matni. Toshkent .2001
4. Ziyonet. uz



## ABDULLA ORIPOV SHE’RLARINING TIL BADIYYATI

Esonaliyeva Kimyoxon Baxodir qizi

Farg‘ona tumani 34-maktab

ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

e-mail:kimyoxon34@mail.ru

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Abdulla Oripovning so‘z qo‘llash mahorati, so‘zga bo‘lgan munosabati, uning she‘riyatida ona tilining o‘ziga xos imkoniyatlari aks etishi tahlilga tortilgan, til badiiyati xususida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** shoir, so‘z, til, so‘z qo‘llash, uslub, san’atkor

Yaxlit bir yaqin o‘tmishga aylangan XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida 60-yillar avlodining alohida o‘rni bor. Garchand mustabid tuzumning mafkuraviy zug‘umlari badiiy ijod sohasiga o‘z ta‘sirini o‘tkazishda davom etayotgan bo‘lsa ham, bir muddat hukm surgan iliqlik davrida adabiyot maydoniga yangi bir avlod kirib keldi. Bu avlod ijodida milliy o‘zlikni anglash, Vatanni e‘zozlash, milliy urf-odatlarini targ‘ib-tashviq qilish, milliy his-tuyg‘ularni tarannum etish tamoyillari yetakchilik qilar edi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Omon Matjon kabi shoirlar bu adabiy avlodning yetakchi shoirlari sanaladi. Davrning tabiiy bir ehtiyoji bu avlod zimmasiga an‘anaviy she‘riyatni yangilash va badiiy tafakkurda teranlashuvdek ulkan bir vazifani yuklagan edi. Ijod ahli xalq diliga yaqinlashdi, xalqning dardu alamlariga sheriklik tuyg‘ularini ilgari surdi; ramzlar vositasida o‘z millatining tutqunlikdan ozod bo‘lishdek ezgu istagini bayon qildi. Bu avlod vakillari ijodida xalqona 7 poetik tafakkurga xos belgilar paydo bo‘ldi. Abdulla Oripovning —O‘zbekistonll she‘ri, Erkin Vohidovning — “O‘zbekim” qasidasi, Omon Matjonning — “Haqqush qichqirig‘I” va boshqa shoirlarning qator turkumlari xalqimiz qalbida chuqur iz qoldirdi. Milliy fikr tarbiyasiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Bu shoirlar xalqning chinakam mehr-muhabbatiga sazovor bo‘lish uchun ijodkorning estetik ideali yuksak bo‘lishini, o‘zlari xalq hayotining ichiga kirishi zaruratini juda teran angladilar. Shu bois, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov bir she‘rida: El ustozim men esam –tolib! So‘z durlarin termoqdir ishim. Odamlarning o‘zidan olib Odamlarga bermoqdir ishim, – deb umuman ijodkorga xos konsepsiyani g‘oyatda muxtasar tarzda ifoda qildi. Abdulla Oripov fenomeni ana shunday adabiy muhitda tabiiy zarurat, —ehtiyoj farzandil sifatida maydonga keldi. Har qanday iste‘dodli, milliy shoir badiiy tafakkur vositasida o‘ziga xos san’atkor ekanini ko‘rsatadi. Tabiiyki, bunday ijodkor asarlarida badiiy tasvir vositalarini mohirona qo‘llash, badiiy tilning tasvir imkoniyatlari, ayniqsa, poetik ifodaning xalqona tarzi yaqqol namoyon bo‘ladi. Qolaversa, muayyan xalqning milliy xususiyatlari mavhum tushuncha emas, balki tilidek o‘ta aniq va individual hodisada reallashadi. Har qanday badiiy asar qaysi millat hayoti haqida hikoya qilsa, qaysi millatga mansub insonning his-tuyg‘ularini ifodalasa, shu xalqning ruhini, an‘analarini, milliy o‘ziga xosligini qabariq holda ifodalashi tabiiydir. Milliy til va xalq ruhi —...har bir asarda betakror tarzda uyg‘unlashadilar va jonli bir —vujudni - badiiyatning aniq bir farzandini dunyoga keltiradilar. Darhaqiqat, har qanday badiiy asarning sehri, jozibali, maftunkorligi, o‘z navbatida, badiiy asar tiliga, ruhiyatiga hamda ijodkorning individual uslubiga bog‘liq. Ijod ahli go‘zal va betakror iboralarni, matal, maqol va rivoyatlarni, albatta, elidan, xalq ichidan topadi; ko‘pchilik bir oz e‘tiborsiz bo‘lgan yoki ustini bir oz chang bosgan noyob durdonalarni qayta yaraqlatib o‘z xalqiga taqdim etadi. Natijada, ifodalarning xalqona ekanligi, el diliga yaqinligi uchun tahsinlar eshitadi. Chinakam xalq yozuvchisi, shoiri sifatida shuhrat qozonadi. O‘zbek xalqining shunday ehtiromiga sazovor bo‘lgan, xalq dilidan, qalbidan o‘z she‘rlari bilan chuqur o‘rin olgan shoirlardan biri shubhasiz Abdulla Oripovdir. Mustabid tuzum davrida ham bu shoir birovlariga taqlid qilishdan, to‘ti bo‘lishdan orlandi; — bulbul kuyinil o‘z so‘zi bilan o‘zbekona go‘zal tilda kuylashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi tufayli milliy tilimizga e‘tibor kuchaydi. Ona tilini sevish insonparvarlik belgisi hamda ajdodlarimiz ruhiga cheksiz mehr-muhabbat ramziga aylandi. Har qadamda millatni qadrlash, tilni asrab-avaylash umumxalq ishi, fuqarolarning milliy g‘ururini ko‘tarish omili bo‘lib qoldi. Bu san‘at turining boshqa komponentlarini mutlaqo e‘tibordan soqit qilmagan holda ta‘kidlash lozimki, ijod ahli badiiy til vositasida muazzam san‘at koshonalarini bunyod qiladi. Shu ma‘noda Abdulla Oripov yaratgan she‘riyatning badiiy tili, tildagi imkoniyatlar, yangiliklar, uslubiy o‘ziga xosliklar ustida alohida fikr yuritish foydali bo‘ladi, albatta. Har qanday



ijodkor his-tuyg'ularini, voqelikka estetik munosabatini so'z vositasida ifoda qiladi. Badiiy asar tili poetik tafakkurning eng muhim mezonlaridan biri sanaladi. Aslida nazariy jihatdan qaraganda til badiiyati negizida so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llanish, lug'at boyligimizda mavjud so'zlarni o'z o'rnida ishlatish, xalqona frazeologik birliklardan unumli foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi. Abdulla Oripovning mashhur «O'zbekiston» she'rida qaratqich kelishigi qo'shimchasi (- ning) shaklini o'zgartirib, ya'ni «mening» o'riniga «manim» tarzida qo'llashi ham, aynan, she'rning badiiy qiymati oshishiga xizmat qilgan. Ora-orada takrorlanib keladigan «O'zbekiston Vatanim manim» satri o'z orginalligi, shuningdek, shu misradagi ikki so'zning (Vatanim, manim) o'zaro ichki qofiyalanib kelishi kuchli emotsiyani paydo qiladi. Shoir o'z she'rlarida tilni tabiatning faqat insongagina in'om etilgan ulug' ne'mati sifatida tasvirlaydi. Til va ruhni egizak tushunchalar sifatida badiiy idrok etadi. Ikkinchidan, tilga ana shunday badiiy va falsafiy munosabat shoir ijodida ham amaliy tabiati bilan namoyon bo'ladi. Tildan mohirona foydalanish, so'z ummonidan g'avvos kabi —durri g'altonlar terish, so'zga inja va muqaddas go'zallik 12 sifatida munosabatda bo'lib istifoda etish, uning ilohiy qudratini ruhan his qilish shoir badiiy olamining o'ziga xos belgilaridan biridir. 1965-yilda yaratilgan — “Ona tilimga” she'ri mustabid mafkura qarshiligiga uchrab, shoir boshiga juda ko'p malomatlar keltirgan asarlaridan biridir. Bu she'r shoir she'riyatidagi muhim va ijod fenomenini belgilovchi vosita. Bunda ona tilining millat borlig'i va borligi sifatidagi ahamiyati yuksak badiiy libosda namoyon etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Begmatov E. O'zbek nutq madaniyati masalalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1980. № 4
2. Jabborov I. Abdulla Oripov she'riyatida tarixiy shaxs talqini. -Toshkent: Fan, 2008. —B. 100.
3. Norboyev B. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. Filol. fan. d-ri.. dis. avtoref. Toshkent: 1996.-B. 54.



ALISHER NAVOIY IJODIDA BAHROM TIMSOLI VA UNING BADIY TALQINI

**Isroilova Gulbahor Yusubjonovna,**  
Farg‘ona tumani 9-sonli umumiy  
o‘rta ta‘lim maktabi ona tili va adabiyot  
fani o‘qituvchisi  
tel: +998 978177111

**Annotatsiya:** maqolada Sharq adabiyotida Bahrom timsolining yaratilishi, Alisher Navoiy badiiy-estetik talqinida Bahrom timsolining ifodasi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** timsol, xamsanavislik, badiiy g‘oya, tarixiy shaxs, doston.

Sharq adabiyotida xamsachilik an‘anasini davom ettirgan Alisher Navoiy “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni “Sab‘ai sayyor” deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Asarning bosh qahramoni Bahrom tarixiy shaxs sifatida Eronning sasoniy hukmdori Varaxran V ga borib taqaladi. Bu podsho qulon (yovvoyi kiyik)ni ovlashga nihoyatda o‘ch bo‘lganligi uchun xalq orasida Bahrom Go‘r (qulon) laqabi bilan shuhrat topgan. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom deb atalib, jang-u jadallar homiysi sifatida keladi.

Bahrom bilan bog‘liq xalq naqllari, afsona va rivoyatlar dastavval eronliklar tomonidan vujudga keltirilgan va davrlar o‘tishi bilan Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Bahrom Go‘r timsoli hashamat va ovga o‘ch hukmdor hamda ishratparast shaxs sifatida dastavval xalq og‘zaki ijodidan, so‘ngra yozma adabiyotdan o‘rin oladi.

Bahrom obrazi dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sida tasvirlanadi. Firdavsiy Bahromni musbat va manfiy jihatlariga ega murakkab shaxs sifatida tasvirlaydi: u bir tomondan, adolatsevar podsho, vatanparvar yurt egasi, tengsiz aql-idrok, kuch-quvvat sohibi, mohir ovchi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kitobxon ko‘z o‘ngida aysh-ishratga, ehtirosiga o‘ch, xudbin va qahri qattiq shaxs sifatida gavdalanadi. “Shohnoma”da Bahrom Go‘r haqidagi voqea dostonning faqat bir faslini tashkil etib, unda Bahromning tug‘ilishi, taxtga chiqishi, mamlakatni idora qilish tadbirlari, ov vaqtida o‘z kanizagi Ozoda bilan to‘qnashuviga doir voqealar qalamga olingan.

Alisher Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostoni mazkur mavzuda yaratilgan birinchi turkiy doston bo‘lib, Navoiy o‘ziga qadar badiiy adabiyotda yaratilgan dostonlar va to‘plangan boy ijodiy tajribadan foydalangan holda mazmun e‘tibori va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan salafarlari asarlaridan farq qiluvchi yangi doston yaratdi. Doston 38 bob, 5009 baytdan iborat bo‘lib, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi. Doston muqaddimasi an‘anaviy hamd bilan boshlanadi. Navoiy Allohni olamning yaratuvchisi sifatida madh etar ekan, dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e‘tiborni qaratib, iltizom (bir so‘zni biror parchaning barcha misra yoki baytlarida qo‘llab, shu so‘zning muhimligini ta‘kidlash) badiiy san‘ati vositasida falakning yetti qavat ekanligi, yetti gunbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo‘lingani, yetti ko‘k, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi. Shuningdek, Bahrom va Dilorom so‘zlarini asl va majoziy ma‘nolarda qo‘llab, sayyoralar olami, dunyoning yaratilishi haqida o‘z falsafiy qarashlarini bayon qiladi, olamning yaratilishini tasavvufdagi vahdat ul-vujud falsafasi asosida bayon qiladi:

Ishq sensen dog‘iyu oshiqsen,  
Yana ma‘shuqluqqa loyiqsen.  
Ayni ma‘shuqluqda jilvai zot,  
O‘zini ko‘rgali tilab mir‘ot.

Dostonning o‘n birinchi bobi Bahrom tarixi haqidadir. Navoiy Bahromni sasoniy hukmdori Yazdijurdning o‘g‘li bo‘lsa-da, otasidan farqli ravishda ezgu ishlar bilan shug‘ullandi, otasi nimani buzgan bo‘lsa, u barchasin qaytadan tuzdi deydi:

Har ne ul buzdi, bu borin tuzdi,  
Bu borin tuzdi, har ne ul buzdi.  
Kimni o‘lturdi ul qilib majruh,  
Bu qo‘yub marham, o‘ldi jismig‘a ruh.

Navoiy salafarlari bo‘yicha shoh Bahrom tarixini qisqacha bayon etib, endi men aytadigan qissa avvalgilaridan farq qiladi deydi va Allohga shukrona keltirib, Bahrom qissasini boshlaydi.



Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan o‘z davridagi ba’zi dolzarb masalalarga ham ishora qilib o‘tgan. Xususan, haqiqiy hukmdor har qanday illatlardan xoli bo‘lishi zarurligi, xalq ahvolidan g‘ofillik va aysh-ishratga berilish oxir-oqibat shohni va mamlakatni tanazzulga olib borishi mumkinligi shoir aytmoqchi bo‘lgan muhim g‘oyalardan biridir.

Shu ma’noda Navoiy dostonning o‘ttizinchi bobida tush ko‘rganligini aytadi. Tushida shoirni shoh Bahrom yo‘qlab, uni nazm mulkida sohibqiron deb atab, yozgan dostoniga yuqori baho beradi va farzandi qatorida sanalmish Sulton Husayn Boyqaroni ogohlantirishini iltimos qiladi va unga quyidagi so‘zlarni yetkazishni aytadi:

Ki jahon kimsaga vafo qilmas,  
Shohlig‘ tarkiga kiro qilmas.  
Shahki, ming yil oning hayotidir,  
G‘araz – o‘lganda yaxshi otidir.

Shunday qilib, Alisher Navoiy Bahrom obraziga juda katta ma’no-mazmun yuklagan. Uning timsolida oshiqlik va shohlikning bir tanga sig‘masligini ko‘rsatgan. Navoiy asar voqealarini Xurosonu Movarounnaxr hayoti bilan bog‘lashga harakat qilib, qissaga turkona ruh bergan. “Sab’ai sayyor” voqealari, qahramonlarining xatti-harakatlari yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 10-jild. – T.: Fan, 1992. –B.103.
2. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.:Adabiyot va san’at, 1979.–B.72.
3. Hasanov S. Navoiyning etti tuhfasi. – T.: Adabiyot va san’at, 1991.-B.48.



**ADABIYOT FANLARIDA DIDAKTIK O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**Jumaboyeva Munixon Sheripboy qizi,**

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani

21-maktab o‘qituvchisi

Telefon: +99897 458 44 80

**Sobirova Dildora Bekturdi qizi,**

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani

21-maktab o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Bu maqolada adabiyot fanlarida didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish haqida qisqacha yozilgan. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, tafakkur doirasini kengaytirish, Adabiyot faniga har xil texnologiyalar orqali qiziqishni rivojlantirishdan iborat.

**KALIT SO‘ZLAR:** metod, nazariya, ta‘limot, didaktik o‘yin, texnologiya, bayon va insho, oraliq va ijodiy mustaqil ishlar.

Didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o‘yin mashg‘ulotlarida o‘ziga xos xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to‘liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e‘tiborida bo‘lishi lozim. Bundan tashqari har bir didaktik o‘yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to‘g‘ri belgilash va unga rioya qilishning o‘ziga hos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo‘llash talab qilinadi.

Har bir didaktik o‘yin jarayonida o‘ziga xos vositalar turlari qo‘llaniladi va mashg‘ulot jarayonida ulardan to‘g‘ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

- o‘quv qurollari turli o‘lchamlardagi oq va rangli qog‘ozlar, skoch, flomasterlar, ruchka, qalam, chizg‘ichlar, qaychi, yelim va boshqalar.
- texnika vositalari – proektor, mikrofon, kompyuter, video kamera, video magnitafon, televizor va boshqalar.
- mahalliy-tabiiy materiallardan tayyorlangan vositalar.

Didaktik o‘yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni taminlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko‘zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to‘g‘ri foydalanish mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi

Didaktik o‘yin turlarini tanlash mezonlari.

- ishtirokchilar tarkibi bo‘yicha – o‘g‘il bolalar, qiz bolalar, o‘smirlar, katta yoshdagilar uchun o‘yinlar.
- ishtirokchilar soni bo‘yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflar aro va ommaviy o‘yinlar.
- O‘yin jarayoni bo‘yicha fikrlash, o‘ylash, topag‘onlik, xarakatchanlik, musoboqa va boshqalarga yo‘naltirilgan o‘yinlar.
- vaqt me‘yori bo‘yicha dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘olib yoki g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o‘yinlar.

Talim tizimida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni muloqatga kirishish ko‘nikma va malakasini shakllantirib, o‘zaro yordam berish odatlarini rivojlantiradi hamda o‘quvchilarni bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda o‘qitishning chuqur ijtimoiy e‘tiqodlilik bilan uyg‘un ilmiyligiga qo‘yilayotgan talablar g‘oyatda muhimdir didaktikada o‘qitishning ilmiyligi nima ekanligi asosli ravishda bayon qilinadi. Malumki, maktab ta‘limini mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqeylik qanday bo‘lsa uni shundayligicha, hech bir qo‘shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogning vazifasi o‘quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarini mustaqil o‘rganishlarida o‘zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi inson ongidan tashqari obyektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo‘lga solishdan iboratdir. Hatto bolalar ta‘limining birinchi pog‘onasida olgan juziy bilimlar ham haqiqatni buzmasligi kerak.



Adabiyot darslarida topishmoqli o‘yinlar, rasimli o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin tarbiya vositasi sifatida; tafakkur, nutq, hayol, xotira kabi psixologik jarayonlarni kengaytirish va mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin. Masalan:

**“DOMINO” o‘yini**

“Domino o‘yini” ni o‘ynashda to‘g‘ri to‘rtburchakli kichik qog‘ozni dominodek o‘rtasiga chiziq tortib, chap tarafida savol, o‘ng tarafida umuman boshqa savolning javobi yoziladi, ana shunday dominolardan bir nechta 10-12 ta qilib tayyorlanadi. O‘yin oldidan hakamlar hay‘ati saylanadi, 3-4 ta o‘quvchi (guruh) o‘ynaydi.

O‘yinning borishi: bir o‘quvchi bitta dominoni qo‘yadi, bu dominoning chap tarafidagi savolga javob kimda bo‘lsa, shu o‘quvchi dominosini qo‘yadi, bu dominoning ham chap tarafidagi savolga keyingi o‘quvchi dominosini qo‘yadi yoki o‘sha javobning egasi javob beradi. Shu dominolarni to‘rtburchak shaklida terib, oxirgi dominoning savoliga birinchi qo‘yilgan dominoning javobi to‘g‘ri kelishi kerak, ya‘ni “domino” hosil bo‘ladi.

Kimda dominochalar tez tugasa, shu o‘yindan tez chiqadi va ko‘proq ball oladi. Agarda savollarga noto‘g‘ri javob berilsa, unda kerakli shakl hosil bo‘lmaydi, to‘rtburchak ochiq qoladi.

Bu o‘yinning ta‘limiy maqsadi o‘quvchilarning darslarda olgan bilimlarini tez va ongli ravishda amalda qo‘llay bilishni o‘rgatishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi Ona tili, Adabiyot (5-9-sinf), O‘zbek tili (2-9-sinf). Toshkent, 2017-yil.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010. – 149 b.



## ТОПОНИМЛАРДА HAR BIR TARIXIY DAVRNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Nuriddinova Nozima Avaxonovna,**  
Namangan viloyati XTXQTMOHM  
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
nuriddinovanozimahon8@gmail.com/  
tel: +998 90 2196744

**Annotatsiya:** Ushbu maqola imkoniyat doirasida toponimik qonuniyatlarning hudud toponimiyasida amal qilishining o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** toponimlar, joy nomlari, mintaqa, geografiya, ehtiyoj, tarixiylik.

Istiqlol yillari joy nomlariga milliy qadriyatlarining qatlamlaridan biri sifatida qaralib, mustaqil toponimik siyosat yurgizila boshlandi, eski tuzum mafkurasi bilan bog‘liq bo‘lgan, o‘sha davr g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi, hech qanday milliy ma‘no kasb etmaydigan, xalq tarixi, madaniyati, tiliga aloqador bo‘lmagan barcha geografik ob‘yektlar nomlari fuqarolarning taklif va istaklarini xisobga olgan xolda o‘zgartirildi, tarixiy nomlari tiklandi yoki qayta nomlandi. Namangan viloyatining o‘ziga xos qiyofasi, shu zaminda yashab o‘tgan va yashayotgan odamlarning ma‘naviy salohiyati, ibratli faoliyati, mintaqaning tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlari joy nomlarida mujassam desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir geografik obyektning o‘z nomi bor. Ularning ba‘zilari yaqindagina paydo bo‘lgan bo‘lsa, ayrimlari uzoq tarixiy davrdan bizgacha yetib kelgan. Nomlarni xalq ma‘lum bir xududda va zamonda ijtimoiy ehtiyoj tufayli yaratgan. Shu sababdan ularga hududiylik va tarixiylik xos. Nom zamiridagi yashirin ma‘noni aniqlash uchun nom yaralgan davr va hudud tarixini puxta o‘rganmoq, nom uchun asos bo‘lgan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, lisoniy omillarni topish lozim. Faqat shundagina nomning mag‘zi, asl ma‘nosi, tarixi turi aniqlanadi. Ma‘lumki, kundalik hayoti joy nomlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Har bir inson muqaddas ona yurtiga bo‘lgan mehrini bir bo‘lagi sifatida, albatta o‘z mahallasi, qishlog‘i va shahrining nomi nega shunday atalgan, nima ma‘no unda yashirin, bu nom unga qachon va kimlar tomonidan berilganligi bilan qiziqib, aniqlik kiritishni xohlaydi.

Jamiyatning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi va xalqlar hamda mamlakatlar o‘rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo‘lmashligi bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Har qanday hududiy toponimiyani o‘rganish jarayonida vaqt va yosh omili doimo inobatga olinishi kerak. Olib borilgan tadqiqotlar davomida ma‘lum bo‘ldiki, viloyat toponimiyasiga aloqador bo‘lgan eng qadimiy ma‘lumotlar ikki ming yildan ko‘proq tarixga ega bo‘lgan yozma manbalarda uchraydi. O‘sha davrlardan boshlab ko‘p asrlar davomida joy nomlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kelgan. E.M.Murzayevning ta‘kidlashicha: «toponimlarda har bir tarixiy davrning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘qish mumkin»<sup>1</sup>. Shunday ekan, har bir toponim muayyan bir tarixiy davrning mahsuli, asrlar davomida shakllan o‘zgarib, mazmunan mavhumlashib qoladi. Masalan: Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumanida joylashgan O‘ng‘or tog‘i haqida turli afsonalar yuradi. Aynan shu tog‘ Qirg‘iziston va O‘zbekistonni ajratib turadi. Mashhur qo‘shiqqa aylangan Namangan olmasi mana shu yerlarda yetishtiriladi. Shuningdek, bahor kelishi bilan odamlarning tilidan tushmaydigan Nanay qishlog‘i ham shu yerda joylashgan. Atrofdagi qishloqlarda odamlar asosan bog‘dorchilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Tog‘ yonbag‘rida Mamay, Qizilyozi, Zarkent, Poramon, Nov kabi o‘zbek va qirg‘iz qishloqlari joylashgan. Bu yerdagi bog‘bonlar olma va mahalliy aholi g‘aynoli deb ataydigan qora olxo‘ri yetishtirishning havosini olgan. Ular kartoshka ekib, uni saqlashni ham qoyillatishadi. Odamlar tog‘yonbag‘irlaridagi barcha yerlardan unumli foydalanganini quvonarli holat. Nanay qishlog‘i haqida eshitmaganlar bo‘lmasa kerak. Aynan shu tog‘ bag‘rida joylashgan Nanayga butun mamlakatdan dam oluvchilar keladi. Shunga yarasha dam olish maskanlari ham ko‘p. Nanay va Mamay toponimlari mo‘g‘ul sarkardalarining nomi bilan bog‘lanadi. Mashhur rus akademigi sharqshunos va turkolog Vasiliy Bartold o‘z vaqtida mana shu hududlarda yashab, ilmiy ishlar bilan shug‘ullangan.

Xulosa qilib aytganda, maktab geografiya darslarida, dastur va darsliklarida joy nomlari salmoqli

1 Murzaev E.M. Ocherki toponimiki. -M.: Misl, 1974. -382 s.



o'rinni egallaydi. Geografik xaritalarni esa joy nomlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun maktab geografiya darslarida toponimlarga alohida e'tibor berish kerak. Quyi sinflarda o'quvchilar 50-100 tagacha, yuqori sinflarda esa bir necha yuzlab nomlarga duch keladi. Bularni o'rganish uchun faqat nomini aytib o'tish bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Ushbu geografik ob'yekt haqida o'quvchilarda tasavvur hosil bo'lishi uchun, nomning qisqacha izohi, kelib chiqish tarixi aytib o'tilsa, ayni muddao bo'lar edi. Bu narsa o'quvchilar qiziqishi, ob'yekt haqidagi bilimlarni "muhrlanib" qolishiga ko'mak beradi. Bundan tashqari, o'quvchilar qiziqishiga o'qituvchilar hozirjavob bo'lib turishlari shart. Shuning uchun o'qituvchilar tilga olinajak toponimlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim. Toponimikaga oid ma'lumotlar geografiya fanini yanada qiziqroq qiladi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi va bilimlarini mustahkamlaydi. Lekin shuni nazarda tutish kerakki geografiya darslari nuqul nomshunoslikdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. H.Hasanov aytganlaridek "...toponimika juda qiziqarli ekan deb hamma darslarda joy nomlarini o'rganaverib, o'quvchilarning joniga tegmaslik kerak...". Nomlarni o'rganishga darsning ma'lum qismigina ajratilsa bo'ladi, hamma nomlarni bilish shart emas.<sup>1</sup> Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dasturdagi va darslikdagi eng asosiy nomlarga e'tibor berilishi kerak.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Murzaev E.M. Ocherki toponimiki. -M.: Misl, 1974. -382 s.
2. Qoraev S. Toponimika. -T, 2006.
3. Hasanov H. Geografik nomlar siri. -T, 1985.

---

<sup>1</sup> Hasanov H. Geografik nomlar siri. -T, 1985.



## JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING SIYOSIY MUHITGA TA’SIRI

**Sotvoldiyeva Iroda Anvarovna**

Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani

38-sonli o‘rta ta’lim maktabi

tarix fani o‘qituvchisi

+998 996908602

**Annotatsiya:** Maqolada Turkiston o‘lkasining XX asrdagi siyosiy qiyofasi va jadidlarning siyosiy harakatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** jadid, siyosiy harakat, siyosiy muhit, tarixiy vaziyat, milliy ozodlik harakati

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatli qilish jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi. Bu harakat o‘zining shakllanish yo‘lini bosib o‘tar ekan, asr boshlaridan 1917-yil fevral inqilobiga qadar bo‘lgan dastlabki bosqichlarida milliy ozodlik harakati sifatida rasmiylashdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarini zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda fidoiylarcha kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi:

- yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish;
- qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish;
- turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr gruppalari tuzish;
- gazeta va jurnallar chop qilish;
- xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan olingan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munnavarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla xo‘ja Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Toshpulatbek Norbutabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmon Xo‘ja (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev), Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhitdinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz Hoji, Yusupov, Boboxun Salimov (Xorazm) turardi. Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qilgan. Ular podsho Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘nga mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar. D.Alimovanning yozishicha jadidlar mafkurasida hozirgi kunda jamiyatni tashvishiga solayotgan-dinning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rnini to‘g‘ri tushunish, bozorni shakllantirish, jarayonlarini faollashtirish, taraqqiyparvar demokratik institutlarni vujudga keltirish, o‘lkada o‘ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun muhim shartlar bo‘lib, islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyani egallash muammolarini hal etish lozim edi. Jadidlar islomning taraqqiyparvar rolini tushuntirish bilan ta’lim, iqtisod, madaniyat va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish zaruriyatini tushuntirishga intilganlar. Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo‘lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi turli taraqqiyparvar oqimlar dasturlaridan



xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar va muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906 yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Progressiv kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar.

Jadidlar Rossiyadagi siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar, vujudga kelayotgan rus siyosiy partiyalari dusturlarini o'rgandilar. Lekin milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyati bo'lgan o'zbek xalqining tinchliksevarlik, bosiqlikka moyilligidan kelib chiqib, ular tinchlik yo'li bilan, jamoatchilikning murojaatlari, Davlat Dumasidagi ommaviy bahslar va boshqa legal vositalar bilan podsho hokimiyatidan o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida yon berishga erishishga intildilar. Behbudiyning 1906-yil 11-oktyabrda «Xurshid» gazetasida chop etilgan maqolasida ta'kidlanishcha, jadidlar birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butunrossiya musulmonlari ittifoqi tarkibiga kirishlari zarur. Shu bilan ular Rossiyadagi barcha turkiy xalqlar orasidagi progressiv kuchlarga taxnishga intildilar. Behbudiy ushbu maqolasida sotsial – demokratlar partiyasiga nisbatan o'zining salbiy munosabatini bildiradi va bolsheviklar partiyasi dasturining musulmonlar turmushi talablariga muvofiq kelmaydigan xayoliy (utopik) qarash ekanligini 1906-yildayoq bashorat qilgan edi. XX asr tarixi Behbudiy fikrlari to'g'ri ekanligini to'liq isbotlab berdi.

Akademik N.Karimovning yozishicha, Turkistonda siyosiy partiyalar faoliyatini yaxshi o'rgangan fransuz razvedkachisi mayor Lyakosta, 1906-yilda o'z mamlakatiga yo'llagan yashirin ma'lumotiga bunday yozgan edi: «Turkiston o'lkasidagi eng e'tiborli va kelajagi porloq siyosiy kuch sotsial demokratlar (bolsheviklar va mensheviklar) yoki sotsial inqilobchilar (eserlar) yohud kadetlar va liberallar emas, balki o'zbek jadidlaridir».

Xulosa qilib aytganda, jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, ular davlat kelajagi yoshlar qo'lidaligini juda yaxshi anglaganlar.



## ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINI O‘RGANISH

**Tulanboyeva Shaxloxon Valijonovna**

Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani

38-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

tel: +998 996135284

**Annotatsiya:** maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganish va tahlil qilish, matni ustida ishlash muammolari yoritilgan. Dostonning badiiy-estetik xususiyatlari tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** sharq adabiyoti, xamsanavislik an‘anasi, doston, obraz, timsol, badiiy-estetik xususiyat, umuminsoniy qadriyatlar.

Badiiy asar tahlili ham badiiy asar ustida ishlash bosqichlarining eng muhimlaridan biridir. Tahlilning maqsadi, vazifasi, tarkibi va o‘ziga xos mazmuni mavjud. Tahlilning bosh maqsadi, asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to‘g‘ri va to‘la idrok etishdan iborat. O‘quvchilar asarda ask etgan voqea va qahramonlar muallifning nuqtai nazari bilan aloqadorligini, shunga qaramay asardagi badiiy olam bilan haqiqiy hayot orasiga tenglik alomati qo‘yib bo‘lmasligini anglay boshlaydilar.

9-sinfda o‘quvchilar badiiy asarlarni sistemali o‘rganib, ular haqida fikr yurita boshlaydilar, asarni tahlil qilish bilan har bir obrazda oldinga surilgan g‘oyani, fikrni bilib oladilar. Ularda faqat obrazga emas, balki asar muallifiga, uning fikr – o‘ylarini bilishga qiziqish ortib boradi, natijada uni ijodkor shaxs, talant egasi sifatida his etadilar. 9-sinf o‘quvchilarida yozuvchini ana shu zaylda tasavvur etish birinchi kun mashg‘ulotdan boshlanadi. Shuning uchun ham, ular Alisher Navoiy va uning “Farhod va Shirin” dostonini qiziqib o‘rganadilar, ularda bu asar haqida to‘liq tasavvur hosil bo‘ladi. O‘quvchilar “Yozma adabiyot” mavzusini, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga kirishganlarida adabiyot nima ekanini chuqur his etadilar. Alisher Navoiyning orzu –istaklarini, uning podsho va riyokor shayxlarga bo‘lgan munosabatini payqab oladilar. O‘quvchilar Alisher Navoiy yaratgan obrazlarni o‘rganish bilan hayot va odamlar haqida fikr yurita boshlaydilar. 9-sinfda ham asar yuzasidan suhbat o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotdan so‘ng asar o‘qiladi, matn ustida ishlanadi va tahlilga kirishiladi.

O‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, buyuk daho ijodkor Alisher Navoiy o‘zining “Xamsa” asarini yaratish bilan jahon adabiyotiga yangi, muhtasham, eng muhimi kitobxonni hayratga soluvchi bino yaratdi. Buyuk shoirning besh dostoni o‘z ichiga olgan ilmiy ummoni jahonning 70 dan ortiq tillariga tarjima qilindi. Sababi shumikim, xitoy, olmon, fors – tojik, yapon va boshqa millat kitobxonlari shoir asarlarini jon dildan sevib tilga oladilar.

Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuni ilmiyligini ta‘minlash maqsadida olimlarining Alisher Navoiyning badiiy san‘ati, uning “Xamsa” asarining jahonshumul ahamiyati, shuningdek, “Farhod va Shirin” dostonining poetik qiymatiga oid fikrlarini bayon etadi. Bu narsa o‘qituvchining faqat 9-sinf darsligida aytilgan ma‘lumotlar bilan cheklanib qolmasdan “Xamsa” asarining tahlili, undagi dostonlarning jahonshumul ahamiyati haqida ham o‘quvchilarga ma‘lumot berish imkonini beradi. Shu maqsadda o‘qituvchi o‘zining “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishga bag‘ishlangan kirish mashg‘ulotida o‘zbek mumtoz adabiyotining III tomini yaratgan akademik B.Valixo‘jayevning ilmiy fikrini keltirishi, Alisher Navoiy ijodiga berilgan yuksak baho hisoblanadi. Doston an‘anaviy hamd va na‘tlar bilan boshlanib, qalam vasfi, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy haqidagi boblardan so‘ng dostonning yozilish sabablari va undan kuzatilgan maqsad bayoni beriladi. Shundan so‘ng Badiuzzamon mirzoga bag‘ishlangan bob keladi. Bularning hammasi dostonning muqaddimasi bo‘lib, undan keyin Farhodning tug‘ilishi, unga nom qo‘yish bilan bog‘liq hamda Farhodning vafotigacha bo‘lgan sarguzashtlari bayon qilinadi. Farhod vafot etgach, Sheruya Xusravni o‘ldirib, Shiringa talabgor bo‘ladi. Shirin esa Farhod qabrida uning yonida vafot etadi. Bu xabarni eshitgan Mehinbonu ham olamdan o‘tadi. Xuddi shu vaqtda Chindan Farhodni yo‘qlab Bahrom keladi, Farhod vafotini eshitadi. Sheruyani yengib, Arman o‘lkasida bir odil kishinipodshoh qilib qo‘yadi. Dostonning voqeasi shu yerda tugaydi.

Dars davomida masalaning bunday qo‘yilishi o‘quvchilarda “Farhod va Shirin” dostoning



tarixiyliги, uning yaratilish sabablari, mazmuni, ayniqsa, buyuk shoirning mavzu tanlashda uning mahoratini o‘rganish imkonini beradi. Bu haqda taniqli adabiyotshunos olim, prof. G‘. Karimov quyidagilarni bayon etadi: “Ulug‘ san‘atkor va donishmand mutafakkir Navoiy inson va uning ichki his – tuyg‘ulari to‘g‘risida so‘zlaydimi, koinot kengliklaridan bahs ochadimi yoki bo‘lmasa kichik lirik she‘rlarida muhabbat qo‘shig‘ini to‘qiydimi, lirik, epik asarlarida tiyran falsafiy tushunchalarni bayon etadimi — hamma o‘rinda, u yoki bu munosabat bilan gul va gulshandan bahs ochadi . . .

Navoiy yaratgan bog‘ning kishini hayratga soluvchi gulshani bu uning “Farhod va Shirin” dostonidir. Adib ushbu asarni yozishga kirishar ekan, bu ko‘hna sharq afsonasini yangi mazmun bilan boyitib, unga yangicha ruh va bo‘yoq berishga jazm qilganini aytadi va shunday yozadi:

Oni nazm etki, tarhing toza bo‘lg‘ay,

Ulusqa mayl beandoza bo‘lg‘ay.

Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq,

Muqarrar aylamak sandin na loyiq”.

Alisher Navoiy “Xamsa”sini tashkil etgan asarlar o‘rtasida “Farhod va Shirin” dostoni alohida ajralib turadi. Ulug‘ shoir bu dostonni qadimgi Sharq adabiyotida uzoq tarixga ega bo‘lgan Farhod afsonalari, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy kabi Sharq adabiyotining mumtoz so‘z san‘atkorlari yaratgan “Xusrav va Shirin” dostonlarining hayotiy traditsiyalarini davom ettirgani, boyitgani holda yangi, mustaqil syujet, g‘oya va obrazlarga ega bo‘lgan asar sifatida ishladi. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining muqaddima boblarida bu masalalarga mufassal to‘xtalib o‘tadi.

#### **Adabiyotlar**

1. Бадриев Ф., Худойбердиев А. Бадий адабиётни ўқитиш мезони.// Бадий матн таҳлили ва талқини муаммолари. – Т.2012.
2. Badriyev F., Xudoyberdiyev A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Sam. 2003.
3. Бадриев Ф., Худойбердиев А. Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” дostonи хақида// Til va adabiyot ta’limi. 2011, 8-son.



ADABIYOT DARSLARIDA IJODKOR TARJIMAI HOLINI O‘RGATISH XUSUSIDA

**Umarova Intizor Raximberganovna,**

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani

37-maktab o‘qituvchisi

**Matqurbonova Gulbaxor Shokirovna,**

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani

37-maktab o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada ijodkor hayoti va ijodini ta‘lim bosqichlarida o‘rganishning ahamiyati, shakl va usullari, ijodkor tarjimai holini o‘rganishda uning o‘z asarlaridan foydalanishning ahamiyati, yozuvchi tarjimai holi va uning uslubi o‘rtasidagi aloqadorlik yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** didaktik tahlil, tarjimai hol, klaster, yozuvchi biografiyasi, adib shaxsiyati.

Umumta‘lim maktabida badiiy asar o‘rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib xulosalar chiqarishga uruniladi. Badiiy asar tahlilidan ilmiy xulosalar chiqarmoq uchun yozuvchining pozitsiyasini tushunish kerak bo‘ladi, buning uchun esa ijodkorlarning tarjimai holi bilan tanish bo‘lish talab etiladi, shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo‘lganligidan xabardor bo‘lish mumkin. Maktab adabiy ta‘limida yozuvchilar umr bayoni 2 sababga ko‘ra o‘rganiladi: 1) Adiblar millat ahlining diqqat e‘tiborida turgan kishilar, ularning shaxsiy hayoti va tabiatida o‘quvchilar uchun namuna bo‘ladigan jihatlar ko‘p. Binobarin, yozuvchi hayoti o‘quvchilarga ma‘naviy namuna maktabi sifatida o‘rgatiladi. 2) Adiblarning hayot yo‘li, sa‘jjiyasi asarlarida o‘z nuqsini qoldiradi. Binobarin, ijodkorlarning hayot va ijod yo‘llari va shaxsiyatlari borasidagi ma‘lumotlar ularning asarlarini tushunishga kalit hamdir. Yozuvchi biografiyasi haqidagi ma‘lumot hamma sinflarda ham beriladi. Ammo o‘smir yoshidagi o‘quvchi bilan o‘spirin yoshidagi o‘quvchining adiblar tarjimai holini o‘rganish o‘ziga xos didaktik jarayonlar tarzida kechadi. O‘smir yoshidagi bolalar yoki 5-6-sinflarning o‘quvchilari hali adabiy asarlar yaratish badiiy zaruriyat ekanini unchalik tushunmaydilar. Buning ustiga ular adib shaxsiyatining badiiy asarda aks etishini ham to‘liq anglamaydilar. Shu sababdan ham 5-8-sinflarning darsliklarida yozuvchilar haqida o‘quvchilarga eng umumiy ma‘lumotlar berish bilan kifoyalanaadi. Odatda, 5-8-sinflarda adiblarning biografiyalarini o‘rganishiga alohida soat ajratilmaydi. Binobarin, yozuvchi haqida uzoq to‘xtalish zaruriyati yo‘q. Shuning uchun darsliklarda o‘quvchilarning o‘zlari o‘qib olishlari mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar beriladi. Bu yoshdagi o‘smirlarda hissiy bilish kuchli bo‘ladi, abstrakt tafakkur, bilishning diduksiya usuli yetarlicha rivojlanmagan bo‘ladi. Shu bois ko‘rgan, sezgi organlari orqali qabul etilgan tushunchalar mustahkam o‘zlashtiriladi. Sabab-oqibat bog‘lanishlari haqidagi mulohazalar unchalik anglashilmasligi mumkin. O‘smir yoshidagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari boshqacha rivojlangan bo‘ladi. Ularda inson shaxsining jamiyat tomonidan shakllanishi, bir jamiyatda turib, yashab turib, undan tashqarida turishning imkonsizligi haqida muayyan qarashlar mavjud. Demak, yozuvchi shaxsiyati, ma‘naviyati bu sinf o‘quvchilarining axloqiy sifatlariga ta‘sir etishi mumkin. Yuqori sinflardagi mashg‘ulotlarda o‘qituvchi adib shaxsiyati qirralarining, u qachondir boshidan kechirgan voqealarning asarlarda qay tarzda namoyon bo‘lishiga alohida e‘tibor berishi kerak. Katta maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘zlari intensiv ravishda shaxs sifatida shakllanib borayotganliklari uchun yozuvchilar shaxsiyatiga astoydil qiziqadilar. O‘qituvchi adib qarashlarning, kayfiyatlarining tadrijiy yo‘li, bu yo‘lning asarlarda aks etishi kabi muammolarni yuqori sinf talabalarida aniqlab olgani ma‘qul. Bu xol birinchidan o‘quvchilarning avval bilganlarini esga solib, ma‘ruzani o‘zlashtirishda bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan, berilayotgan bilim mustahkam ilmiy poydevor ustiga qurilib, yaxshiroq esda qoladi. O‘quvchilar o‘ylashga majbur bo‘lishadi. O‘ylash jarayoni ularning yangi bilimlarni o‘zlashtirishlarida ham qo‘l keladi. 9-sinf dan e‘tiboran adiblarning tarjimai holini o‘rganishga alohida vaqt ajratiladi, ularning hayotidagi muhim hodisalargina emas, balki ijodiy qiyofalarning shakllanish bosqichlari ham tekshiriladi. O‘quvchilar shu sinfda adib shaxsi bilan uning asari o‘rtasidagi bog‘lanishni ilg‘aydigan bo‘ladi. Adabiyot o‘qituvchisi yuqori sinflarda yozuvchining hayot va ijod yo‘li haqida va‘z o‘qishdan oldin o‘quvchilar avvalgi sinflarda adiblarning hayot va ijod yo‘llari haqida nimalar o‘rganganliklarini esga solishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yozuvchining hayoti o‘rganilar ekan, uning o‘ziga zamondosh, o‘zidan oldin o‘tgan va keyin paydo bo‘lgan ijodkorlarga ta‘siriga ham o‘rni bilan to‘xtalish joiz. Adib hayotini



o‘rganishning shakl va usullari xususida fikrlar o‘rtaga tashlanadi. Ijodkor umrbayonini o‘rganishda adiblarning o‘zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari, muxlislari tomonidan aytilgan fikrlar yoki yozma holda yetib kelgan manbalardan olish mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri shoir va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir. Masalan, Abdulla Oripov haqida gapirib turib, Erkin Vohidov shunday degan edi: “Barcha isyonkor shoirlar kabi Abdullaga ham oson bo‘lgan emas. Qattol tuzum qamchisidan u ham omon qolmagan. Lekin ruhiy azoblar, siquvlar, ming iztiroblar so‘nggida shoirga nasib bo‘lgan kattakon baxt shuki, u xalqi mehrini qozondi, o‘zi kurashgan ozodlik va mustaqillik g‘oyasining kurtak yozganiga guvoh bo‘ldi...”. A.Navoiy, Z.M.Bobur, Ogahiy, Furqat singari ko‘plab mumtoz adabiyotimiz vakillarining hayoti va ijodini o‘rganishda ana shu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi. Ijodkor tarjimai holini o‘rganishda ularning o‘z asarlarida saqlanib qolgan materiallardan foydalanish usullari ham juda samaralidir. O‘qituvchi adib haqida gapirar ekan, uning hayotidagi u yoki bu voqeani shunchaki sodir bo‘lgan fakt sifatida emas, balki bo‘lajak san’atkorning ijodiy qiyofasini belgilaydigan omil sifatida yoki biror asarning bitilishiga turtki sifatida talqin etsa maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Шофқоров, А. М. (2020). Геминациянинг услубий вазифасига доир. Филологиянинг долзарб муаммолари, 1, 344-345.
2. Шофқоров, А. М., & Ходжамкулов, У. Н. (2019). Педагогик таълим кластери тамойиллари. Филологиянинг долзарб муаммолари, (2), 71-74.

# ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ

(8-қисм)

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

**Контакт редакций научных журналов.** [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

---